



Tadqiqot UZ

**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



CONFERENCES.UZ

28 FEVRAL
№25

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 25-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
3-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
25-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-3**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
25-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-3**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 25-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 28 февраль 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 24 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманганд мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

PhD Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛANIШЛАР

1. Tilavova Gulnoza G‘ulomovna	
TARIX FANINING O‘ZLIKNI ANGLASH, INSON DUNYO QARASHINING	
SHAKLLANISHIDAGI O‘RNI VA UNING TARBIYAVIY AHAMIYATI	7
2. Гаффорова Дилбар Хасановна	
ИЗ ИСТОРИИ ФОРМИРОВАНИЯ ТРАДИЦИЙ УСТОЗ-ШОГИРД.....	9
3. Сафарова Ирода Кадамовна	
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ХАЛҚ ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИНИНГ ХАЛҚАРО	
БАХОЛАШ ДАСТУРИ БУЙИЧА «PISA» ВА «PIRLS» ТАДҚИҚОТЛАРИНИ	
МАКТАБ ДАРСЛИКЛАРДА УМУМИЙ ФОЙДАЛАНИЛИШИ ВА ТАРИХНИ	
ЎРГАНИШ МОҲИЯТИ	11
4. Қурбонова Диляфруз Фарход қизи	
ОЛИЙ ИСЛОМ ТАЪЛИМ ДАРГОҲЛАРИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР ВА ЯНГИ ТАЪЛИМ	
МУАССАСАЛАРИНИНГ ТАШКИЛ ЭТИЛИШИ	13
5. Safarova Oysara Murodovna	
BUXORO AMIRLIGIDA XIX ASR OXIRI- XX ASR BOSHLARIDA OLIB BORILGAN	
TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR	16
6. Shermuhamedova Gulrux Xusanovna	
O‘ZBEKISTONDA TARIX FANI RIVOJLANISHINING TARIXIY YO‘LI HAQIDA	18
7. Abdullayev Anvar Akmalovich	
UZLUKSIZ TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI ISLOHOTLAR –	
MOAMMOLAR VA YECHIMLAR	19
8. Абдуллаев Миржалол	
ТАРИХ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ЖАДВАЛЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ	21
9. Amonova Nafiza Komilovna	
TARIX DARSLARIDA TARIXIY-BADIY ADABIYOTLAR FOYDALANISHNING	
O‘RNI	22
10. Najmiddinova Madina Ixtiyor qizi	
O‘ZBEKİSTONNING ENG YANGI TARIXINI O‘RGANISHNING SIYOSIY VA	
IJTIMOIY, ILMIY VA AMALIY AHAMIYATI	24
11. Бекчанов Тулганой Юсуповна, Нуржонова Умида,	
Жуманиёзов Расул Турабоевич	
ТУРКИСТОНДА МУСТАБИД СОВЕТ ҲОКИМИЯТИНИНГ О’РНАТИЛИШИ	26
12. Raxmonova Gulzoda G‘aniyevna	
JAMIYAT HAYOTIDA HUQUQIY ONG MASALASINING DOLZARBLIGI	28
13. Sayidova Nilufar Bahodir qizi, Sayidova Ra’no Bahodir qizi	
TARIXIY HAQIQAT IZIDAN	29
14. Тажиева Умида Ражаббаевна	
ХИВА ХОНЛИГИДА ТАБИАТДАН ФОЙДАЛАНИШ ТАРИХИННИГ БАЪЗИ	
МАСАЛАЛАРИ	31



ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

TARIX FANINING O'ZLIKNI ANGLASH, INSON DUNYO QARASHINING SHAKLLANISHIDAGI O'RNI VA UNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Tilavova Gulnoza G'ulomovna

Navoiy viloyati Karmana tumanidagi
17-umumiy o'rta ta'lif maktabi tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Tarix fanining o'zlikni anglash, inson dunyo qarashining shakllanishidagi o'rni, uning tarbiyaviy ahamiyati va ularning o'zaro aloqadorligi bo'yicha tavsiyalar o'rin olgan.

Kalit so'zlar: Tarix, ta'lif, metod, milliy, falsafa, etnografiya, arxeologiya, antro-pologiya va shu kabi mavzuga oid so'zlarning ma'nno -mazmummini qo'llanilish jarayoni.

Har qanday fan kabi O'zbekiston tarixi fani ham o'zining g'oyaviy-nazariy asoslari, ilmiy ta'liflari, metodi (usuli) va metodologik (uslubiy) talab hamda tamoyillariga ega. Bular O'zbekiston tarixi fanining asosini tashkil etib, uning rivojlanishi, jamiyat va millat manfaati yo'lida nufuzining ortib borishida muhim rol o'ynaydi. Eng muhimi, ular Vatan tarixining haqqoniy yozilishi, tarixiy haqiqatni yuzaga chiqishiga xizmat qiladi.

Agar tarix insoniyat uchun ijtimoiy zaruriyat va ehtiyoj ekanligi va tarix fani esa bu ehtiyojga mas'ulligi e'tiborga olinsa, ilmiy g'oya va nazariyalar hamda metodologik tamoyillarning ahamiyati benihoya katta ekanligi yanada ravshan bo'ladi. Chunki bular tarixning mazmun va mohiyati hamda falsafasini chuqurroq olib berishga, shuningdek, tarix fanining maqsad va vazifasi to'laroq ro'yobga chiqishiga bevosita yordam beradi. Shuning uchun ham O'zbekiston tarixi fanining g'oyaviy-nazariy asoslari, ilmiy ta'liflari va metodologiyasi nimalardan iborat bo'lishi o'ta muhim masala hisoblanadi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tarixning eng muqaddas milliy va umuminsoniy xotira hamda qadriyat ekanligini ta'kidlab, «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q», «O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi», «Tarix - xalq ma'naviyatining asosidir», degan teran falsafiy fikrlarni olg'a surdi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov asarlari mazmunidan kelib chiqadigan O'zbekiston tarixi fanining ilmiy metodlari va metodologik tamoyillari quyidagilardan iborat:

Tarixiy hodisa va voqealarni, hujjat va faktlarni ilmiy xolisona va halol o'rganish va tahlil qilish;

Tarixni milliylik va umuminsoniylik asosida o'rganish va tahlil qilish;

Tarixni haqqoniy ob'yekativlik, tarixiy falsafiy (tarix falsafasini anglash) mantiqiylik asosida o'rganish va yozish;

Tarixga milliy va umuminsoniy xotira va qadriyat sifatida hurmat va ehtirom bilan e'tiborli bo'lish;

Xalq, buyuk davlat arboblari va rahbarlari, talantli va qobiliyatli, fidokor va qahramon kishilarning tarixda tutgan o'rniga alohida e'tibor berish;

Tarixiy voqyea va hodisa, hujjat va faktlarni to'g'ri va noto'griligini aniqlashda tarixiy tanqidiylik usuliga amal qilish;

Tarixni o'rganishda tarixiy universallikka amal qilish;

Tarixni ilmiy-ijodiy qiyoslash va tanqidiy asosda o'rganish;

Etnografiya, arxeologiya, antropologiya va boshqa fanlarning yutuqlari hamda usullaridan foydalanish;

Tarixni o'rganishda vorislik va uzviylikka, eng muhimi mantiqiylikka amal qilish.

O'zbekiston tarixi faqat turli bilimlar tarzidagi fan emas, balki bir necha asrlar davomida to'planib kelgan o'zaro ichki qonuniyatlar bilan chambarchas bog'langan bilimlar tizimi sifatidagi o'zining o'rganish ob'yekti va predmetiga ega bo'lgan mustaqil fandir. O'zbekiston tarixini o'rganishda



manbalarning ahamiyati beqiyos bo'lib, bular moddiy va yozma manbalaridir. Tariximizning eng qadimgi, ya'ni yozuvlari zamondarga oid davrini o'rganishda arxeologik, antropologik va etnografik manbalar yordamga keladi. Bu manbalar turli-tuman bo'lib, ularga - qadimgi manzilgohlar va shaharlar xarobalari, mozor-qo'rg'onlar qoldiqlari, turmush va xo'jalikda ishlataladigan buyumlar, mehnat va jangovar qurollar, turli-tuman ashyolar kiradi. Yozma manbalar esa, eng qadimgi yozuvlar, bitiklar va kitoblardan iboratdir. Moddiy va yozma manbalar ma'lumotlarini solishtirib, qiyoslab tarixni talqin etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston tarixini o'rganishda tarixiylik uslubi ham alohida o'rinn egallaydi. Bu uslub tarix jarayonida sodir bo'lgan voqeа-hodisalarini o'rganishda ketma-ketlikni talab qiladi. Bir voqeа-hodisa bilan boshqasini sabab-oqibatli bog'lanishi ham ko'rsatiladi. Tarixiylik voqeа-hodisalarini qay tarzda sodir bo'lganligini, jamiyat rivojlanishida ayrim shaxslar va ularning roli to'grisida to'gri, haqqoniy fikr yuritishga o'rgatadi. Tarixiylik uslubi xalqning o'tmishiga, hozirgi zamonni va kelajagiga yagona tarixiy jarayon sifatida o'tmish hozirgi zamonni tayyorlaydi, hozirgi zamon keljakni yaratadi, degan taraqqiyot qonuni asosida qarashni talab qiladi. Bo'lib o'tgan tarixiy-madaniy jarayonlarni, ajdodlarimiz qoldirgan ulkan merosni qanchalik chuqur va har tomonlama o'rgansak, anglab yetsak hamda keng targ'ib etsak, hozirgi zamonni shunchalik mukammal tushunib, keljakni yorqin tasavvur etamiz.

XII asrning buyuk allomasi Shahobiddin Muhammad an-Nasaviy ham bu fikrni o'zining quyidagi to'rtligida yanada teran ma'noda mana bunday bayon etadi:

Kimki tutmas qalbida tarixni,
U inson ham emas, olim ham emas.
Biroq kimki uqsa o'tmishini,
Ko'p boyitar o'z turmushini.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati :

1. I.A.Karimov. Tarixiy xotirasiz keljak yo'q. T.: Sharq, 1998 yil
2. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. T.: Sharq 2000 yil
3. A.Ibrohimov. Biz kim o'zbeklar ... T.: Sharq, 1999 yil
4. O'zbekiston tarixi. T.: 1997 yil



ИЗ ИСТОРИИ ФОРМИРОВАНИЯ ТРАДИЦИЙ УСТОЗ-ШОГИРД

Гаффорова Дилбар Хасановна
Магистр истории
Независимый исследователь
dgafforova41@gmail.com

Анотация: Из истории формирования традиции «Устоз-шогирд», некоторые этическо-нормативные аспекты отношений на примере ремесленников. Рисола как важный источник при изучении вышеуказанной темы.

Ключевые слова: Устоз-шогирд, корпоративная этика, духовное воспитание, Рисола ремесленников, Сухарева О., Гаврилов М., Мукминова Р.

Ремесло и прикладное искусство народов Узбекистана имеет глубокие исторические корни. Во все времена почиталось мастерство и художественные произведения в различных сферах: архитектура, текстильное ремесло, художественный металл, гончарство и д.р. Музейные экспонаты лучших собраний мира свидетельствуют о высоком художественном образовании и профессионализме мастеров Узбекистана и Средней Азии в целом. Ремесленничество на протяжении веков приобрело своеобразный статус школы духовного развития, важнейшим элементом которого является традиция устоз-шогирд (мастер-ученик). Эти отношения выходят далеко за рамки привычного представления об образовании, мастер не только учитель и наставник, но и духовный отец играющий огромную роль в формировании личности ученика, передающий идеи, философию, этику обучаемой профессии. Выдающиеся умы средних веков как Абу Наср Фараби, Хусейн Ваиз Кашифи, Алишер Навоий в своих произведениях уделяли большое внимание роли образования, этики отношений устоз-шогирда.

На сегодняшний день нормы и стандарты образования упорядочены законодательством Республики Узбекистан. Например, Приказом Министра высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан об утверждении правил определения учебной нагрузки профессорско-преподавательского состава, а также учебно-методической, научно-исследовательской и «устоз-шогирд» работы высшего образовательного учреждения (10 сентября 2018 г., № 20-2018).

Но у древних традиций обучению ремесла имеются свои исторически сложенные «законы» и уставы вызывающие огромный интерес этнографов, педагогов и искусствоведов. Основным уставом в упорядочении традиций устоз-шогирд, являлась *рисола ремесленников*.

Рисола (арабское слово, означающее «письмо», «сообщение», «агитация») по своему содержанию и значению является уставом, сводом правил определенного вида ремесла и его основным трактатом. Кроме того, рисола занимает важное место в формировании профессиональной этики, взаимоотношений между мастером-устой и учеником-шогирдом, а также таких положительных качеств учеников, как уважение к старшим и мастеру, а также преданность профессии, честность и верность. На начало XX века все ремесленные организации (касаба) имели свой устав (рисола), который в основных чертах был схож с рисола других ремесленников. Он строился по одному плану и состоял из таких элементов, как: славословие, происхождение тех или иных инструментов, основы веры и наставления, как себя вести в процессе работы. Рисола заучивалась наизусть. Когда возникла рисола нам точно не известно, примечательно высказывание востоковеда Н. Лыкошина по этому поводу «трудно сказать что-либо определенное о времени составления всех этих этических правил, но, по-видимому рисоля должны быть отнесены к первым векам распространение ислама, от них веет стариной». Возможно, рисола, возникли наравне с возникновением ремесленных школ и объединений. В Бухаре и поныне существуют мастерские где сохранились рисола, например «Рисолай охангари ва мисгари» (Устав кузнецов и медников).

В советский период эта тема была представлена под обязательной идеологической призмой, поэтому в биографическом сочинении С. Айни [Воспоминания. 1960 г.] или в трудах О. Сухаревой [Позднефеодальный город Бухара конца XIX - начала XX века: ремесленная промышленность. 1962 г.] устоз (мастер) характеризуется как эксплуататор



дешевого труда бесправных учеников, как меркантильным человеком требующие подарки. В то же время приводится много важной, интересной и объективной информации об издавна сложившихся идей и корпоративной этики. В качестве примера, Сухарева приводит так же длительность обучения и обязанности учеников помимо специализации. По словам Усто Косим Миракова из Бухары, его дедушка долго обучался и поначалу помогал мастеру по хозяйству, крайне негативная трактовка этого рассказа не совсем объективна с учетом того что мастер помимо профессии обучал ученика дисциплине, трудолюбию, терпеливости воспитывая личность в целом а не только ювелира или гончара. Безусловно статус и права мастера доминировали, обязывая ученика к послушанию и уважению что является вполне естественным на фоне норм и ценностей востока.

Большой труд по собранию и переводу на русский язык древних рукописей в виде книжек рисола осуществил тюрколог, историк-этнограф Гаврилов Михаил Филиппович (1884-1938) ставший жертвой репрессий 30-х годов прошлого века. На основе его собрании «Рисоля сартовских ремесленников» и других письменных источников видно что отношения устоз-шогирд не являются бесправным подчинением ученика мастеру. Главное право ученика является в получении знаний и мастерства, мастер **ОБЯЗУЕТСЯ** воспитать и сформировать профессионального мастера. Например, согласно «Рисола мясников» мастер имеет 12 обязательных правил, одним из правил является «обучать учеников утром и вечером», согласно «Рисола хлебопеков» мастер обязуется качественному обучению «... обучать (этому) своих учениковъ, для того что бы те ученики, выйдя хлебниками приготовили пренадлежности пекарни, могли бы (сами) стать хозяевами, после могли бы содержать заместителя и учеников и заниматься промыслом хлебопеков». Другой пример, согласно Мукминовой Р. В XVI веке имелись юридически оформленные документы, согласно которому усто шапочник обязуется за 3 года обучить ученика шитью шапок (токия). Другие виды ремесла, например ювелирное дело имело более длительный срок обучения, 10-15 лет до получения степени мастера [Сухарева О.], в среднем обучение длилось 8-10 лет.

Помимо этических норм и функции устава, рисола является образчиком различных народных преданий, важным источником при изучении терминов связанных с ремеслом, например, названия инструментов, техник и приемов. Так же рисола важны как этнографический источник при изучении сакральных ритуалов связанных с ремесленничеством, такие как посвящение в ученики «камарбанд» и посвящение в мастера «такбир».

В заключении надо отметить, духовность, многранность и широту отношений устоз-шогирд в сфере обучения ремесла сформированные за много веков. Так же отметить важность рисола (устав ремесленников) как источник требующий изучения.

Список литературы:

1. Атаджанова Д. Кузнечное ремесло в Бухаре. Журнал: San'at, N-1, 2008 г.
2. Гаврилов М. Рисоля сартовских ремесленников. Исследование преданий мусульманский цехов. Ташкент, 1912 г.
3. Давлатова, С. T. Risala as a collection of statues and rules concerning handicraft / С. Т. Давлатова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2014. — № 4 (63). — С. 739-743. — URL: <https://moluch.ru/archive/63/10096/> (дата обращения: 23.10.2020).
4. Мукминова Р. Костюм народов Средней Азии по письменным источникам XVI в. // Костюм народов Средней Азии: Ист.-этнограф. Очерки под ред. Сухарева О.А. «Наука», 1979 г.
5. Сухарева О. А. Позднефеодальный город Бухара конца XIX - начала XX века: ремесленная промышленность. 1962 г.
6. Хошимов К., Нишонова С. ва бошқалар. Педагогика тарихи. - Т.: «Ўқитувчи», 1996.



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ХАЛҚ ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИНИНГ ХАЛҚАРО БАХОЛАШ ДАСТУРИ БУЙИЧА «PISA» ВА «PIRLS» ТАДҚИҚОТЛАРИНИ МАКТАБ ДАРСЛИКЛАРДА УМУМИЙ ФОЙДАЛАНИЛИШИ ВА ТАРИХНИ ЎРГАНИШ МОҲИЯТИ

Хоразм вилояти Урганч шаҳридаги 3-сон мактабнинг
2-тоифали «Тарих ва Хуқуқ» фани ўқитувчиси
Сафарова Ирода Кадамовна.
Тел: 998907251552 E-mail: irodaaa51@gmail.com

Аннотация: Ушбу мақолада, Ўзбекистон Республикаси Халқ таълим вазирлигининг Халқаро баҳолаш дастури буйича «PISA» ва «PIRLS» тадқиқотларини мактаб дарслекларида умумий фойдаланилиши ва тарихни ўрганиш моҳияти.

Калит сўзлар: Халқаро баҳолаш дастури, «PISA» ва «PIRLS» тадқиқотлари, тарих ва «PISA».

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. М. Мирзиёевнинг қарорида ёшларнинг интелектуал ва ижодий салоҳиятини ривожлантириш, иктидорли болаларни қўллаб қувватлаш ва рағбатлантириш, учун зарур шарт -шароитларни яратиш, уларнинг хуқуқий онг ва хуқуқий маданиятини даражасини юксалтириш халқ таълим соҳасидаги давлат сиёсатиниг энг муҳим йўланишлардан бири ҳисобланади деб айтиб ўтган.

Тарих дарслекларни яратишда «Кундалик турмуш тарихи» билан боғлик масалаларни алоҳида ажратиб кўрсатиш лозим. Чунки, тарихни ўрганиш орқали ўқувчилар кундалик турмуш тарзига таъсир кўрсатувчи омилларни хам таҳлил этиш малакасига эга бўлиш лозим. Бунака ёндашув орқали тарих таълимининг асосий дидактик параметри ўқувчиларнинг кундалик хаёти билан боғлиқ нарса-ходисалар, анъана ва аҳлоқ меъёrlаридағи ўзгаришларни «Ўтмиш ва бугун» жараёнларини фарқлаш имконияти юзага келади. Шубҳасиз, турмуш тарзи билан боғлик материалларни ўрганишга кенг эътибор қаратиш тарихий жараёнини, чуқур «англаш», «хис қилиш», имконини беради, эмпатик қобилиятини ривожлантиради, тарихни чуқур тушиниш ва таҳлил этиш қобилиятини шакиллантириш учун рағбат ҳосил қиласди. Тарих дарслекларида ўкув материалларни тизимлаштиришда ривожлантирувчи таълим методларига алоҳида эътибор қаратиш лозим. Дарслекларда ўқувчилар олдига «Қандай?» ва «Нима учун?» саволларни қўйиш орқали «Ким?» ва «Нима?» каби репродуктивликдан креативликга йўналтириб борилади. Замонавий тарих дарслекларни яратишда интерфаол дастурий воситалардан фойдаланилиши электрон харита ва виртуал музейларга ҳаволалар бериш, ўқувчиларда ахборот билан ишлаш компетенцияни шакиллантиришга хизмат қиласди. Шу билан бир қаторда, айтиб ўтиш лозимки Президентимиз Ш. М. Мирзиёев ва хукумат тамонидан таълим тизими олдида аниқ вазифалар қўйилган.

Халқаро тадқиқотлардаги натижаларни яхшилаш учун ўқитувчиларни мақсадли тайёрлаш ва таълим жараёнини ўқитиши методикасини ва устувор тамоилларни ўзгартириш учун, анча олдин «PISA» ва «PIRLS» тадқиқотларини очиб берувчи, Миллий марказ томонидан «Ўқувчиларни ҳалқаро тадқиқотларни тайёрлаш буйича Аҳборотнома ва Халқ таълим вазирлиги томонидан материаллар билан тўпламлари чоп етилди. «PISA» натижалари 2023 йил охирида эълон қилинади, аммо бугунги кунга кадар мактаб ўқувчиларида билим самарадорлигини натижалари энди юзага чика бошлади.

«PISA» - тадқиқотида матн тўплаш ва ўқиши заводхонлигини баҳолаш, ва топшириқларда ўқиши заводхонлигини вазият, матн, ва ўқиши кўниммалари шакиллантириш ҳисобга олинади. «PISA» буйича ўқувчиларда ўқиши заводхонлигининг даражасини айтиб ўтсан, бу даражада мустақил фикрлай оладиган ва мушкул вазиятларда фаолият юрита оловчи ўқувчини назарда тутади, 4 даражада мавжуд билим ва кўниммаларни янги маълумотларни олиш учун ишлата олиш қобилиятини намоён эта олишини назарда тутади, 2 даражада бошлангич даражада бўлиб, бу даражада ўқувчиларда билим ва кўниммаларини оддий вазиятда қўллай оладилар.

«PIRLS» - бу биринчидан умумий маълумотлар ўз ичига олади, ўзига хос хусусиятлари ва топшириклардан намуна ҳисобланади. «PIRLS» таълим соҳасидаги ютуқларни баҳолаш



ҳалқаро ассоциацияси (IEA) тамонидан ҳар 5 йилдан бир маротаба ўтказилади. Тадқиқот синф ўқувчиларнинг эришган ютуқларининг ўрганишта барча ўқувчилардан эмас балки, ушбу қатламнинг вакиллари сифатида танлаб олинган ўқувчилардан объектив тестларни ўтказиш оркали баҳолайди. Шунингдек мактаб директорлари, ўқитувчилар, ўқувчилар, ҳаттоқи ота-оналардан сўровномалар ўтказилиб, таълим, сифатида таъсир этувчи омилларига доир кимматли маълумотлар тўпланади.

Ўзимни тажрибамдан келиб чиқсан ҳолда, хулоса қилиб айтаманки дарс давомида дидактик ўйинлардан ва инновацион технологиялардан фойдаланиш, ўқувчиларни муаммо вазиятга тушириб, муаммони ҳал қилишда, атрофдагиларни таъсири кераклигини хис қилиш, кўриш, эшитиш, таҳлил қилиш, фикрлаш, қобилияtlарни ва Миллий марказ томонидан ўқувчиларни ҳалқаро «PISA» ва «PIRLS» тадқиқотларни тайёрлаш бўйича дастурлари кенг кўламда фойдаланилса мақсадга мувофик бўлади. Ахборотнома ва Халк таълим вазирлиги томонидан материалларни чоп этилиши билан, ўтилган дарсларда ўқувчилар ўз қобилияти ва имкониятларни намойиш қилишга эришадилар, жамоа билан ишлаш малакасига эга бўладилар. Бу эса дарснинг самарадорлигини ошириб таълим сифатини кафолатлашга хизмат қиласди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Панина Т. С., Вавилова Л. Н. Современные способы активизации обучения: Учебное пособие – М. 2009
2. Панфилова А. П. Инновационные педагогические технологии. Активные обучения: Учебное пособие – М. 2009.
3. С. Тиллабоев., А. Заманов. Ўзбекистон тарихи 9-синф. 2019.
4. http://mnarusskova.ru/publ/interaktivnoc_obuchenie.
5. <http://www.sportedu.by/Student/Student.php?ind=8>.
6. <http://www.emer.kz/aetivity/obu4cnie/maximum.php>.
7. <http://www.openclass.ru/communities/6134>.



ОЛИЙ ИСЛОМ ТАЪЛИМ ДАРГОҲЛАРИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР ВА ЯНГИ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИНИНГ ТАШКИЛ ЭТИЛИШИ

Курбонова Дилафруз Фарход қизи
Имом Бухорий номидаги
Тошкент ислом институти
4-босқич талабаси
+998900139713

Аннотация: Ҳозирги кунда юртимизда диний-маърифий соҳада кўплаб ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Мазкур мақола сўнги тўрт йил давомида юртимиздаги олий ислом таълим муассасаларида амалга оширилган ўзгариш ва янгиликлар ҳақида маълумот беради.

Калит сўзлар: диний-маърифий соҳа, олий ислом таълим муассасалари, диний соҳа ходимлари, маҳсус сиртқи бўлим, олий диний маълумот, модул таълим тизими, олий мадраса, Ҳадис илми мактаби.

Сўнги йилларда юртимизда барча соҳалар қатори диний-маърифий соҳада амалга оширилаётган ислоҳотлар, айниқса, диний таълим тизимини такомиллаштириш ва мукаммалаштириш борасида олиб борилаётган янгиланишлар соҳа вакиллари олдига ҳам бир қатор муҳим вазифа ва талабларни қўймоқда. Шундай янгиланиш ва ислоҳотлар олий диний таълим муассасаларида ҳам акс этмоқда.

Республикамизда фаолият олиб бораётган илмий-тадқиқот марказлари, масжид ва зиёратгоҳларнинг ўрта маҳсус маълумотга эга бўлган имом-хатиблари, имом ноиблари, зиёратгоҳланинг ходимлари каби мутахассисларни олий маълумотли қилиш мақсадида 2017 йил 30 сентябрда Тошкент ислом институтида маҳсус сиртқи бўлим ташкил этилди¹ ва 2017-2018 ўқув йилидан илк бор ўз фаолиятини бошлади. Маҳсус сиртқи бўлимда ўқиш муддати 3 йилдан иборат бўлиб, унга ҳужжат топширмоқчи бўлганлар ўрта маҳсус ислом таълим муассасаларитни тугатган, Ўзбекистон мусулмон идораси тизимида маълум муддат давомида фаолият олиб бораётган бўлиши талаб этилади. Маҳсус сиртқи бўлимни тугатган талабаларга олий диний маълумот даражасидаги Тошкент ислом институти дипломи берилади.

Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлигининг 2017 йил 30 майдаги “2017-2018 ўқув йили учун ўқув режа ва фан дастурларини тайёрлаш тўғрисида”ги 356-сонли буйруғи асосида Тошкент ислом институти мутахассислиги бўйича тасдиқланган ўқув режага мувофиқ маҳсус сиртқи таълим шаклининг ишчи ўқув режаси ишлаб чиқилди ва тасдиқланди².

Ўзбекистон имомларининг таълим савиясини ошириш йўлида янги тизим ишга тушди. Республикамизда фаолият юритаётган масжидларни олий маълумотли ва малакали кадрлар билан таъминлаш мақсадида Тошкент ислом институтида 2019-2020 ўқув йилидан Модул таълим тизими ташкил этилди. Модул таълим тизимида юртимиз масжидларида фаолият юритаётган ўрта маҳсус маълумотга эга имом-хатиблар 3 йил мобайнida асосий ишжойидан ажралмаган ҳолда таълим оладилар. Модул таълим тизимида Ўзбекистон мусулмонлари идораси тасарруфидаги ўрта маҳсус ислом таълим муассасалари, яъни мадрасаларни тамомлаган, 5 йил ва ундан ортиқ муддат давомида масжидларда фаолият олиб бораётган имом-хатиблар танлов асосида ўқишга қабул қилинади³. Ушбу тизим битириувчиларининг битириув диплом ишини баҳолаш учун Ўзбекистон мусулмонлари идораси раиси бошчилигига жамоатчилик комиссияси тузилди⁴.

Юртимизда қадимдан ислом илмларини ўқитиш тизими ривожланиб келган. Нуфузли мадрасалар кўплиги ва ундаги таълим-тарбия жараёни таҳсинга лойик бўлган. Мадрасалар

¹ Ўзбекистон мусулмонлари идорасининг 2017 йил 29 сентябрдаги “Республикамизда фаолият юритаётган икки мингдан зиёд масжидларни олий диний маълумотга эга имом-хатиблар билан таъминлаш учун Имом Бухорий номидаги Тошкент ислом институтида 3 йиллик Маҳсус сиртқи бўлим ташкил этиш тўғрисида”ги 01A/092-сонли буйруғи.

² <https://islaminstitut.uz>

³ <http://muslim.uz>

⁴ <https://religions.uz>



нафақат диний, балки дунёвий илмларни ўрганиш ва ўргатишда мактаб вазифасини бажарган. Шу туфайли илм-маърифат билан жаҳон тамаддунига муносиб ҳисса қўшган буюк алломалар айнан шу заминдан етишиб чиққани барчага аён. Уларнинг номи ва қолдирган илмий мерослари неча асрлардан бери катта обрў-эътибор қозониб келмоқда. Кўхна Бухоро ҳам ўзининг кўп сонли мадрасалари билан ном таратган. Бухоронинг мадрасаларида илм ўрганиш учун турли ўлкалардан талабалар ташриф буюраган. Бу анъана кейинги асрларда ҳам давом этиб келган.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 2017 йил 10-11 март кунлари Бухоро вилоятига ташрифи чоғида Бухоро вилоятида "Мир Араб" олий мадрасасини ташкил қилиш бўйича кўрсатмалар берган эди. Берилган кўрсатмаларга асосан Ўзбекистон мусулмонлари идораси томонидан "Мир Араб" олий мадрасаси ташкил қилиниб, 2017 йил 7 июнь куни Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги давлат рўйхатидан ўтказди. Ўзбекитон мусулмонлари идораси тизимида ислом илмларидан таълим берувчи олий диний таълим муассасаси яна биттага қўпайди.

Динлар тарихи ва назариясини чукур эгаллаган, ислом дини асосларини ўзлаштирган, инсонпарварлик, халқпарварлик, Ватанга садоқат руҳида тарбияланган олий маълумотли ислом шариати илмлари ва араб тили бўйича мутахассислар тайёрлаш, шунингдек, ислом шариати ва араб тили бўйича таълим бериш мадраса фаолиятининг асосий мақсади қилиб белгиланди¹. Ушбу диний таълим муассасасининг ташкил қилиниши Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ва "Виждан эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисида"ги Қонунда белгиланган фуқароларнинг виждан эркинлиги ҳамда диний таълим олишга бўлган ҳуқуқларини амалга оширишлари учун яна бир имконият бўлди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 16 апрелдаги "Диний-маърифий соҳа фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-5416-сонли Фармони ҳамда Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 1 ноябрдаги "Ҳадис илми мактаби фаолиятини ташкил этиш ва қўллаб-куватлаш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 896-сон Қарорига мувофиқ ислом дини ва ҳадис илми ривожига бекиёс ҳисса қўшган буюк ватандошларимизнинг бой меросини чукур ўрганиш, улар томонидан асос солинган ҳадис илми мактаблари фаолиятини қайта тиклаш ва ривожлантириш ҳамда ислом дини асослари ва ҳадис илмини мукаммал ўзлаштирган олий маълумотли етук мутахассисларни тайёрлаш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Дин ишлари бўйича қўмита, Ўзбекистон мусулмонлари идораси ва Ўзбекистондаги Ислом цивилизацияси марказининг олий диний-маърифий таълим муассасаси шаклидаги Ҳадис илми мактабини ташкил этилди ва 2018 йил 5 декабрь куни Адлия вазирлиги томонидан давлат рўйхатидан ўтказилди. Ҳадис илми мактаби Ўзбекистон мусулмонлари идораси муассислигидаги олий диний таълим берувчи нодавлат таълим муассасаси хисобланади. Қуръони карим ва ҳадисларнинг асл моҳиятини, ҳадис илмининг илмий-назарий асосларини чукур ўрганган, ҳадис илми ривожига бекиёс ҳисса қўшган улуғ ватандошларимизнинг улкан илмий меросини пухта ўзлаштирган, ҳадисшунослик соҳасида илмий изланишлар олиб бориш кўнижасига эга мутахассисларни тайёрлаш, ҳадисшунослик мактаби шаклланиши ва ривожланиши, унинг илмий-маънавий асосларини ҳар томонлама чукур ўрганиш, тадқиқ этиш ва унинг натижалари асосида ҳадислардаги эзгу умуминсоний гояларни халқимизга, айникса, ёш авлодга етказиш мактабнинг асосий вазифалари қилиб белгиланди. Ҳадис мактабида ўқиш муддати беш йил бўлиб, у кундузги таълим шаклида олиб борилади ва "Ҳадисшунослик" таълим ўйналиши бўйича бакалавр даражасидаги кадрлар тайёрлаш йўлга қўйилади. Битирувчиларга бериладиган давлат намунасидағи диплом Ўзбекистон Республикасида диний таълим соҳасидаги тегишли мутахассисликлар бўйича бакалавр даражасини берувчи олий маълумот тўғрисидаги хужжат деб эътироф этилади. Ҳадис мактабига араб тилини пухта ўзлаштирган, ҳадисларни ёд олишга салоҳияти бўлган ўрта маҳсус диний таълим муассасаларининг иқтидорли битирувчилари саралаб олинади. Ҳадис мактаби битирувчиси таълимни ўз ихтисослигига кўра Ўзбекистон халқаро ислом академияси магистратурасида давом эттириши, таянч докторантурда ва докторантурда босқичларида

¹ Мир Араб олий мадрасасининг Адлия вазирлиги томонидан 2017 йил 7 июнда давлат рўйхатидан ўтказилганлиги ҳақида 21-сонли гувоҳнома.



таҳсил олиши мумкин¹.

Диний таълим соҳасида амалга оширилган мазкур қувонарли воқеалар 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида назарда тутилган диний бағрикенгликни таъминлаш борасидаги амалий ҳаракатларнинг мантиқий давомчиси бўлиб ҳисобланади.

Фойдаланилган манбалар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 16 апрелдаги “Диний-маърифий соҳа фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5416-сонли Фармони.

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 1 ноябрдаги “Хадис илми мактаби фаолиятини ташкил этиш ва қўллаб-кувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 896-сон Қарори.

3. Ўзбекистон мусулмонлари идорасининг 2017 йил 29 сентябрдаги Имом Бухорий номидаги Тошкент ислом институтида 3 йиллик Махсус сиртқи бўлим ташкил этиш тўғрисида бўйруғи.

4. <https://religions.uz>
5. <http://muslim.uz>
6. <https://islaminstitut.uz>

¹ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 1 ноябрдаги “Хадис илми мактаби фаолиятини ташкил этиш ва қўллаб-кувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 896-сон Қарори.



BUXORO AMIRLIGIDA XIX ASR OXIRI- XX ASR BOSHLARIDA OLIB BORILGAN TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR

Safarova Oysara Murodovna
Buxoro viloyati Shofirkon tumanidagi
42-umumiy o'rta ta'lif maktabi
Tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada, Buxoro amirligidagi ilm- fanning ahvoli, uning o'ziga xos jihatlari hamda ta'lif tizimi mahalliy tarixchilarning asarlari asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Amirlilik, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, Ahmad Donish, Muhammad Ali Boljuvoniy, masjid, madrasa, Amir Shohmurod.

Har bir davlatning taraqqiyotga erishishi eng avvalo, davlat boshligining olib brogan oqilona siyosati, hamda ilm- fanning rivoj topishiga munosib hissasini qo'shishi bilan belgilanadi. Buxoroda 1756- 1920 yillarda hukmronlik qilgan mang'it hukmdorlari ilm- fan va shuningdek, maorif sohasiga alohida e'tibor qaratib, bu sohalarda muhim tadbirlarni amalgalash oshirdilar. Biz o'rganayotgan davrda, amirlikda fanning qaysi sohalari taraqqiy etgani, amirlarning ilm- fanga nisbattan munosabatlari qay darajada bo'lgani, ta'lif jarayonining qanday olib borilganligi xususida haqli savol tug'iladi. Ushbu muammoga yechim izlash maqsadida, Buxoro amirligida ijtimoiy- siyosiy jarayonlarning bevosita guvohi bo'lgan mahalliy tarixchilar asarlariga murojaat qilish mumkin. Ular o'z asarlarida amirlikdagি ilm-fanning ahvoli, ta'lif tizimi xususida yetarlicha ma'lumot bergenlar. Jumladan, Ahmad Donish, Mirzo Abdulazim Somiy Bo'stoniy, Mirza Salimbek, Muhammad Ali Baljuvoniy, Mirzo Olim Maxdum hoji 178 kabilar bu masalaga alohida to'xtalib o'tganlar. Mahalliy tarixchilardan biri Muhammad Ali Baljuvoniy bo'lib, u 1923- 1927 yillar oraliq "ida „Tarixi Nofeiy“ (Foydali tarix) asarini yozadi. Muallifning „Tarixi Nofeiy“ (Foydali tarix) asari qisqa kirish, 15 bob va xotimadan iborat bo'lib, Buxoro amirligining XIX asr oxiri- XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy tarixini yoritadi. Asarda asosan ijtimoiy-siyosiy voqealar bayon qilingan bo'lsada, ilm-fan, maorifning ahvoli, madrasalar faoliyati xususida ham muhim ma'lumotlar keltiriladi: „Bilginki, Buxoro Turkiston va Movarounnahrdagi davlatlar orasida ilm-u madaniyat, shariat fanlarining taraqqiy etganligi bilan afzal. Tafsir, hadis, fiqh, kalom, usul, sarfu nahv ilmlaridan iborat bo'lgan shariat ilmlari shu muazzam diyorda rivojlangan, hikmat ilmini ham madrasalarda zarurat yuzasidan o'qitadilar. Bu ilmi hikmat mantiq, qismati ilohilardan iborat bo'lgan, biroq riyoziy va siyosiy ilmlar azaldan ham bu shaharda keng tarqalmagan. Shuning uchun Buxoro davlatining siyosati boshqa Islomiy davlatlar singari orqada qolgandir“ 179 . Ushbu ma'lumotlardan shuni anglash mumkinki, amirlikda asosan diniy fanlarni o'qitishga katta e'tibor qaratilgan. Buxoro amirligini diniy davlat ekanligini hisobga olsak, bu tabiiy hol edi albatta. Davlat idoralarida faoliyat yurituvchi ulamolar dunyoviy fan sohalarining rivojlanishiga imkon bermaganlar. Muallif asaridan ta'lif tizimi haqida ham quyidagi ma'lumotlarni o'qiyimiz: „Bu davlatda taxminan uch- to'rt ming talabalar o'qiyildilar. Dars beruvchi mudarrislarning soni taxminan 800 nafar. Buxoroyi Sharifning a'lo darajali mudarrislariga eshon- qozi ul- quzzot, eshon- raisi- kalon, eshon- shayxul- islom, eshon- oxun, eshon- a'lam va eshonmuftiy askar kiradilar. Bundan tashqari , shariat fatvolari sohasidan dars beruvchi muftiyalar ham bor. Ularning soni 22 nafar. Bular a'lo va avsatlar bo'lib, o'rta darajali mudarrislarga bo'linadilar. Bu muftiyalar o'roqlik mansabiga erishishi mumkin bo'lganki, u eshik oqoboshi amali darajasiga teng kelgan, shu bilan birga sudurlik, sadrlik, shayx ul- islom, naqiblik, miri asadlik mansablariga ham yetishganlar. Bu jamoaga umumiy imtihondan so'ng, „Hidoyayi sharif“ ni o'qib tugatishlari bilan amir buyrug'iga ko'ra dahuylak (ushr) berilgan. Agar tolibi ilm tahsili ilmda peshrav (oldinda) bo'lsa yoki bundan ham ko'p bilimlarga ega bo'lgan bo'lsa, „Hidoyayi sharif“ dan o'qitib imtihon qilib, dahuylak bergenlar.

Mahalliy tarixchilarimizdan biri, o'zining har qanday voqeа -hodisalarga tanqidiy qarashlari bilan ajralib turadigan Ahmad Donish Amir Haydarning ilmiy faoliyatini asarida quyidagicha yoritadi: „Tinchlik hukm surgan vaqtarda amir (Izoh: bu yerda Amir Haydar nazarda tutilmoxda) poytaxtda bo'lsa, ulamolarning ko'pchiligi uning oldiga borar, suhabatida bo'lardi. Buxoro akobirlarining farzandlari, maxdumzodalar g'uj- g'uj bo'lib, Buxoro arkiga chiqib, amir huzurida mashg'ulotlar va ilmiy munozaralar o'tkazar edilar. Tarixda bunday boshqaruv shakli bo'lganligi



hech kimning yodida yo‘q. Buning avozasi butun islom diyoriga tarqalib, turli maskanlardan odamlar ilm olish uchun kela boshladilar. Buxoroda diniy ilmlar, shariat qoidalari shunchalik rivojlandiki, islomiyat davrida hech bir podsholikda olimlar bunchalik yutuqlarga erishmagan edilar...

Shuningdek, Amir Haydar hukmronligi davrida, Mahmud G‘aniy, Abdulaziz ibn Abdulg‘aniy, Mullo Hojiboy ibn Safar al- Muhammadiy, Mo‘minxo‘ja Vobkandiy, Husniddin ibn Bashir Tuftoriy, Abdulg‘affor ibn Said ash Shirvoniy va shularga o‘xhash ilmlik dindorlar huzurida xalq yig‘ilib ulardan ilm olgan 189. Aytib o‘tilgan ma’lumotlardan, Amir Haydar davrida o‘zaro ichki kurashlarga barham berilmagan bo‘lsada, ammo ilm-fan to‘xtab qolmadi, balki aynan shu hukmdor boshqaruvi davrida ancha taraqqiy etdi degan xulosa kelib chiqadi. Chunki, amirning turli ilmlarni egallaganligini, anchayin salohiyatli shaxs bo‘lganligini, ilm-fanni rivoj topdirish borasida madaniy qurilishlar qilganini mahalliy manbalardagi ma’lumotlar tasdiqlaydi. Amir Haydar hayotlik chog‘idayoq, kichikroq madrasa qurdiradi va u Madrasayi Amir va Oliycha nomi bilan mashhur bo‘ladi. Savdogarlardan Tursunjon ismli kishi ham 1805-yilda Buxoroda katta madrasa qurdirishni boshlaydi. Ammo qurilish tugallamay turib, to‘satdan vafot etgach, Amir Haydar qurilishni oxiriga yetkazadi 190. Amir Haydarning o‘g‘illaridan biri Amir Nasrullo (1826-1860) ham otasi kabi shariat qonunlariga qattiq bo‘ysunardi 191. Ammo, aynan shu amirning boshqaruvi davriga kelib ilm-fan, xususan, ta’lim tizimiga e’tibor susaydi. Bu fikrni quyidagi manbada keltirilgan ma’lumot tasdiqlaydi: „Buxorodagi madrasalarning aksarida avqofi mutafovot bo‘lib, hujrada iste’qomat qilguvchi talabalarning darsi „Sharhi Mullo („Jomiy“) din „Adno“ va „Aqoid“ din „Mullo Jalol“ gacha avsat va andin yuqorisi a’lo e’tibor ila uch qismga taqsim qilinur edi. Bu amirning asrida hammasi barobar qilindi. Ilgari vaqtarda shanba, yakshanba, dushanba, seshanba to‘rt kun tahsil va uch kun ta’til bo‘lur edi. Ammo choharshanba kuni ham tahsil qildi. Ammo mudarris mazkur kunni yo yarim soat darsxonada o‘ltursalar ham talabalar dars o‘qimoqg‘a kelmas edilar va ko‘p zamondin buyon Buxoro kitobxonlarida mahfuz muntafi’ kutubi avqofning aksarini har xil majhul va noma’lum odamlarga besanad va behujjat berib, kitoblar atrof javonibga tarqalib tamom zoye bo‘ldi ” 192.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Mirza Salimbek. Kashkuli Salimi. Tavorixi muttaqadimin va mutaaxirin. Fors-tojik tilidan N.Yo‘ldoshev tarjimasi. –Buxoro: „Buxoro“ nashriyoti, 2003.
2. Muhammad Ali Baljuvoniy. Tarixi Nofeyi (Foydali tarix). Tojik tilidan tarjima, so‘zboshi va ayrim izohlar mualliflari Shodmon Vohidov, Zoir Choriyev. -Toshkent: Akademiya, 2001. Mirzo Olim Maxdum hoji.Tarixi Turkiston.Arab yozuvidan Sh.Vohidov va R.Xoliqova tabdil etgan. -Toshkent: Yangi asr avlod, 2008..
3. Sayyid Amir Olimxon. Buxoro xalqining hasrati tarixi Forschadan tarjima muqaddima va izohlar bilan Abdusodiq Irisov . –Toshkent: O‘zbekiston SS Fan” nashriyoti, 1991 . –B. 8.



O'ZBEKISTONDA TARIX FANI RIVOJLANISHINING TARIXIY YO'LI HAQIDA.

Shermuhamedova Gulrux Xusanovna

Toshkent shahar Yunusobod tumani

70-umumiyl o'rta ta'lif maktabining

tarix fani o'qituvchisi

Telefon raqami: 974043566

Annotatsiya. Tarix fani asrlar davomida qo'lyozma asarlarda ifodalangan maishiy hayot, voqeal-hodisalar, tarixiy personajlar va shaxslar haqida hikoya qilishdek oddiy bayonchilikdan, muayyan-tarixiy kontekstda tarixiy hayot yo'lining shakllanishi, bosqichlari va umumiy qonuniyatlarini aniqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va nazariy xulosalar chiqarish kabi murakkab ilmiy yo'lni bosib o'tdi.

Kalit so'zlar. «Avesto», Turon, Movarounnahr, Gerodot, Ksenofont, Ktesiy, Polibiy, Diodor, Strabon, Kursiy Ruf, «Siyrat as-Sulton Jalol ad-D in Mankburni», «Abdullanoma», Muhammad Amin Buxoriy.

O'zbekistonning eng qadimgi tarixi haqida moddiy madaniyat yodgorliklari va arxeologik topilmalar ma'lumot beradi. Miloddan avvalgi birinchi ming yillikka oid yozma manbalar, zardushtylarning muqaddas «Avesto» kitobida, axmoniylar davriga oid Behustun, Naqshi Rustam qoyatoshlaridagi bitiklarida, Turon va Movarounnahrning tabiatni, xalqlari haqida ma'lum otlar keltirilgan. O'zbekistonning qadimgi tarixi haqida Gerodot, Ksenofont, Ktesiy, Polibiy, Diodor, Strabon, Kursiy Ruf, shuningdek, xitoy, arm an, arab mualliflari yaratgan yozma manbalarda ma'lumotlarni uchratish mumkin. Asrlar davomida O'zbekistonning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy hayoti tarixi haqidagi ma'lumotlar saroy yilnomachilari, tarixchilar, geograflar tomonidan yozilgan asarlар haqida, xonlar, podshohlar va boshqa hukmdorlar ko'rsatmasiga binoan yozilgan rasmiy hujjatlarda manbalar shaklida jamlana bordi. Xalqimizning qadim tarixga ega ekanligi haqida so'z yuritar ekan, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni alohida ta'kidlab o'tadi: — «Hozir O'zbekiston deb ataluvchi hudud, ya'ni bizning Vatanimiz nafaqat Sharq, balki umum jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiylar va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozilu fuzalolar, olimu ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan. Eram izgacha va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, shu kungacha ko'rku fayzini, mahobatini yo'qotmagan osori atiqalarimiz qadim -qadim dan yurtimizda dehqonchilik, hunarmandchilik madaniyati, me'morchilik va shaharsozlik san'ati yuksak bo'lganidan dalolat beradi. O'rta asrlar tarixnavisligida sulolaviy tarixga bag'ishlangan Bayhaqiyning «Tarixi Bayhaqiy», Nasaviyning «Siyrat as-Sulton Jalol ad-D in Mankburni», Sharafuddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Fazlulloh ibn Ro'zbexonning «Mehm onnom ai Buxoro, Hofiz Tanish Buxoriyning «Abdullanoma», Muhammad Yusuf Munshiyning «Tarixi Muqimxoniy, Muhammad Amin Buxoriyning «Ubaydullanoma kabi asarlari yaratildi. Ya'qubiyning «Kitob al-buldon («Mamlakatlar haqida kitob»), Tabariyning «Tarixi Tabariy, Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», ma'lum bir hudud tarixiga oid — mintaqaviy uslubdagi Narshaxiyning «Tarixi Buxoro», Nasafiyning «Kitob al-qand fi tarixi Samarqand («Samarqand tarixi haqida qanddek kitob») kabi nodir qo'lyozma manbalarda O'rta Osiyo mamlakatlarining geografik holati, yirik shaharlari va aholisi, ularning turmush tarzi va mashg'ulotlari, karvon yo'llari, urushlar, g'alayonlar, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayotiga doir turli ma'lumotlar bayon etilgan. O'rta asrlar tarixshunosligida Amir Temur va temuriylar davri tarixi, ayniqla, mufassal yoritilgan. O'sha davr tarixiga oid yaratilgan «Temur tuzuklari», Mirxondning «Ravzat us-safo asarlarida Amir Temur va temuriylar saltanatining tashkil topishi, ichki va tashqi siyosati, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga oid m uhim ma'lumotlar keltirilgan. O'rta asrlarda davlat ishlari, boshqaruv tizimi haqida ma'lumot beruvchi Forobiyning «Fozil odamlar shahri, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Nizom ul mulkning «Siyosatnoma, Xondamirning «Dastur al-vuzaro, Muhammad Boqirxonning «Muvazayi Jahongiriy» asarlari yaratildi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbek xalqi va davlatchiligi tarixi konsepsiysi / / O'zbekiston tarixi. 1999, 1-son.
2. O'zbekistonning yangi tarixi. Konsepsual — metodologik muammolar. — T.: «Akademiya».
3. www.ziyouz.com



UZLUKSIZ TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI ISLOHOTLAR – MOAMMOLAR VA YECHIMLAR

Abdullayev Anvar Akmalovich
Navoiy viloyat Qiziltepa tumani
15-maktab tarix fani o'qiruvchisi

Annatatsiya. maqolada, Uzluksiz ta'lism jarayonida bugungi kunda amalga oshiriliyotgan islohotlar, tarix ta'limidagi muammolar va ulanning yechimi va bu islohotlar jarayonida tarix o'qituvchisining vazifalari tahlil etilgan.

В статье, Реформы, проводимые сегодня в процессе повышения квалификации, анализируются проблемы и пути решения проблем в историческом образовании и задачи учителя истории в ходе этих реформ.

In the article, Reforms carried out today in the process of continuing education, the problems in history education and solution of Ulan and the tasks of the history teacher in the process of these reforms were analyzed.

Kalit so'zlar: O'zbekistonning eng yangi tarixi, ta'lism, tarixiy ta'lism, milliy o'zlik, kasbiy mahorat.

O'zbekiston o'z mustaqilligini musathkamlash yo'lida borar ekan, barcha sohalar qatori ta'lism sohasida ham katta islohotlar olib borilmoqda. Rivojlanish hech bir davlat uchun oson kechmagan. Bu yo'lda o'ziga xos to'siqlar, qiyinchilig-u yechimi yo'qdek tuyuluvchi muammolar ko'p uchraydi. Shularni yengib o'tgan xalq uchun eng buyuk mukofot — hayotiy tajriba. Bugun taraqqiy etgan mamlakatlar o'z ta'lism tizimini yuqori darajaga olib chiqish uchun qanchadan qancha mashaqqatlarni yengib o'tganligi tarixiy haqiqat. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 30-sentyabr kuni O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosim-dagi nutqida "Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni yechish imkonи tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekistonostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'laymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi", deya ta'kidladi. Ta'lism sohasini tubdan isloh qilish borasidagi barcha ishlardan ko'zlangan asosiy maqsad ham shu.

Tarix fani o'qituvchisi o'quvchining bilimini shakkantirish, uni shaxs sifatida tarbiyalashda bo'lg'usi erkin fikrlaydigan, erkin fuqaroni tarbiyalashda asosiy o'rinni egallaydi. Shu sababli tarix o'qituvchisiga katta mas'uliyat yuklanadi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng xalqning boy ma'naviy salohiyati va umuminsoniy qadriyatlarga hozirgi zamon madaniyati, iqtosidiyoti fan-texnikasi va texnologiyasining so'nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta'lism tizimini barpo etish dolzarb ahamiyatga ega bo'lib qoldi. O'zbekiston Respublikasi 2020- yil 23- sentyabrdagi IV sessiyasida yangi "Ta'lism to'g'risida" gi Qonuni qabul qilindi. Eng asosiy vazifa qilib, O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shadigan, zamon talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilishi huquqiy kafolatlandi. Barcha fanlarni o'qitish bo'yicha zamonaviy fan yutuqlaridan foydalanish keng yo'lga qo'yilmoqda.

Bugungi kunda tarix fanini o'qitishda tub burilishlar boshlandi. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 30-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzurida O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" gi qarori ham muhim hujjatlardandir.

Qarorda Jamoatchilik kengashi oldiga O'zbekistonning eng yangi tarixini tizimli, haqqoniy va xolis tarzda o'rganishni tashkil etish, yangi avlod ilmiy va o'quv-uslubiy adabiyotlarni yaratish hamda mamlakatimizning dunyodagi o'rni va rolini ko'rsatishga qaratilgan qator vazifalar qo'yilgan. Mazkur hujjatda ko'rsatilgan vazifalarni bir-birini to'ldiruvchi ikki yo'l orqali ro'yobga chiqarish lozim. Birinchi yo'l – yangi avlod ilmiy va o'quv adabiyotlarini yaratish. Ikkinci yo'l – mavjud bilimlarni yoshlarga targ'ib etish va o'qitish.

Hozirgi kunda kelib tarix ta'limali "Ta'lism to'g'risida" gi Qonunga asoslangan holda bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan ilm orqali bilim o'rganish uchun zarur bo'lgan o'quv adabiyotlari to'la yangilanmoqda, Darsliklarning muqobil variantlarini yaratilishi milliy dasturda ko'rsatilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish asosiy vazifa qilib qo'yildi. Shu bilan birgalikda tarix o'qituvchisi oldida uchta asosiy vaazifa turadi:



O'quvchiga tarixiy ta'lif berish asosida uning tarixiy ongi, tarixiy xotirasini shakllantirish va shu jumladan tarixiy tafakkurini hosil qilish;

Zamon ruhida mos milliy o'zligini anglagan hamda milliy g'urur, or-nomus tuyg'ulari singdirilgan, milliy urf-odat va an'analarni saqlovchi va davom ettruvchi, vatanparvar, o'z xalqiga sodiq bo'lgan barkamol avlodni shakllantish

Yangi texnika va texnologiyalar jamiyat hayotiga jadal kirib kelyotgan, tadqiq etilayotgan hozirigi zamonga mos mustaqil fikrga ega bo'lgan yosh avlodni shakllantirish uchun o'quvchiga rivojlantiruvchi bilim berish ;

Tarix o'qituvchisi yuqoridaq vazifalarni bajarish uchun zamonaviy tarix nazariyasi, konsepsiyalari, metodlarini o'ziga to'la o'zlashtira olishi lozim. Tarix o'qituvchisi jamiyat oldida fuqaroga yangi ta'lif-tarbiya berishda o'z mas'uliyatini his qilishi lozim.

Maktablarimizda tarix o'qitishni milliy asoslarda ko'rish negizida ta'lif tarbiya samaradorligini oshirish, O'zbekiston tarixini o'qitish va o'rganishning imkoniyatlaridan oqilona foydalanish avvalo, o'qituvchilarga ularning tarix o'qitishni milliy asosga ko'rishning ilmiy-nazariy asoslari bilan qurollanish darajasi hamda ularni amalda qo'llay bilish mahoratiga bog'liq.

Tarix o'qitishning samarali bo'lishida o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish muhim rol o'ynaydi. Buning uchun o'qituvchi har bir darsni mazmunli, hayotiy voqealar bilan boyitish, ko'rgazmali qurollar va badiiy adabiyotlar, texnik vositalardan, turli adabiyotlardan unumli foydalanib borishi lozim.

Maktab oldida turadigan muhim vazifalardan biri - pedagoglarning kasbiy mahoratini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir. Buning uchun ta'lif muassasasida amal qiladigan samarali metodik xizmat tuzilmasini vujudga keltirish juda zarur, chunki o'qituvchining mahorati joylarda doimiy, tizimlashtirilgan o'qish orqali shakllantiriladi.



ТАРИХ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ЖАДВАЛЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

Абдуллаев Миржалол, ўқитувчи
Самарқанд вилояти Пайариқ тумани 36-мактаб

Аннотация: Ушбу мақолада тарихни ўқитишида жадваллардан фойдаланишнинг ўзига хос хусусиятлари ёритилган.

Калит сўзлар: Тарих, жадвал билан ишлаш, инновация.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев томонидан белгилаб берилган 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг ҳаракатлар стратегиясида устувор йўналишлардан бири этиб белгиланган таълим ва фан соҳасини ривожлантириш бўйича сифатли таълим хизматлари имкониятларини ошириш, меҳнат бозорининг замонавий эҳтиёжларига мувофиқ, юқори малакали кадрлар тайёрлаш назарда тутилган.

Тарихнинг фан сифатидаги вазифаларидан бири ўтмишнинг тарихий билимлари асосида тарихий воқеликнинг воқеа ва ҳодисаларини англаб этиш қобилиятини ривожлантириш ва ўзига хос малака ва кўнгималарни шакллантиришдан иборат. Чунки замонавий ҳаётда юксак заковатли ҳаракатчан кишиларга талаб кўпаймоқда.

Жадвалларни тузишида таълим олувчилар мантиқий фаолиятни амалга оширади: анализ қилиш ва синтезлаш, қиёслаш, тарихий материални қайта ишлаш ва умумлаштириш, уни тизимга солиш ва график тасвирлаш.

Бугунги кунда мавжуд компьютер технологиялари жадвалларни ранг, сурат, шакл, анимациядан фойдаланган ҳолда, ранг-баранг қилиб яратиш имконини беради. Жадвалларни яратишида риоя этиладиган мезонлар: матн парчасининг уёки бу маъносини қабул қилишда кўргазмаликни ошириш ва уни қабул қилишни осонлаштириш; икки ёки ундан ортиқ объектнинг ўхшашиб ёки фарқли жиҳатларини (воқеа, ҳодиса, факт, шахс, буюм ва ҳ.к.) таққослашни амалга ошириш; қатор объектларни гурухлаштириш, уларни тизимлаштириш.

Жадвалларни улар бажарадиган вазифасига қараб 4 гурухга ажратиш мумкин:

1) Тушунтирадиган – қисқартирилган кўринишдаги назарий материални тушунишни осонлаштирадиган, уни онгли ўзлаштириш ва эслаб қолишга ёрдам берадиган жадваллар;

2) Солиштирадиган – материални таққослаш ёки қарама – қарши қўйишни амалга оширадиган жадваллар, улар материални гурухлаштиришнинг бир кўринишидир. Бунда тарихий, ижтимоий ва сиёсий объектларнинг аҳамиятли барча белгиларини солиштириш ҳамда уларнинг ўзига хос ёки умумий жиҳатларини аниқлаш имконияти яратилади.

3) Умумлаштирувчи ёки тематик – ўрганилган назарий материалга якун ясаш, тушунчаларни шакллантиришга хизмат қиласди. Қайсиdir материални умумлаштирар экан, бу каби жадваллар мантиқий кетма- кетликда воқеа ва ҳодисаларнинг, жараёнларнинг энг муҳим хусусиятларини ажратиб кўрсатади.

4) Хронологик – тарихий жараённни хронологик изчилликда эсалаб қолишга ёрдам берадиган жадваллар. Жадваллар ўзгармас ва динамик (анимацион) бўлиши мумкин. Тарихни ўқитишида жадвалларнинг қўйидаги шаклларидан фойдаланиш мумкин: матнли, рақамли, жадвалли-суратли, жадвалли-схемали.

Жадваллар таълим олувчиларнинг диққатини ўрганилаётган материалнинг асосий моҳиятига қаратишга имкон беради, уларни уёки бу тарихий қонуниятларни англашга йўналтиради, аммо тайёр хulosса ва таъриф бермайди, балки фикрлаш фаоллигини, мустақилликни талаб қиласди, таълим олувчиларнинг абстракт тафаккурини ривожлантиради.

Адабиётлар:

1. Ахунова Г.Н., Голиш Л.В., Файзуллаева Д.М. Педагогик технологияларни лойихалаштириш ва режалаштириш. – Тошкент: Иктисодиёт, 2009.

2. Беспалко В.П. Слагаемые педагогической технологии. - М.: Педагогика, 1989.



TARIX DARSLARIDA TARIXIY-BADIY ADABIYOTLAR FOYDALANISHNING O'RNI

Amonova Nafiza Komilovna
Qiziltepa tumani 15 umumta'lim maktabi
tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada Tarix darslarida badiiy adabiyotdan foydalishning didaktik maqsadlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: adabiy yodgorlik, belletristik asarlar, tarixiy hodisa, proza yo'nalihi, poeziya yo'nalihi

Tarixiy-badiiy adabiyotlar tarixiy jarayonlarni o'zlashtirishda muhim omil sanaladi. Tarixiy-badiiya dabiyot obrazlaridan foydalanish o'qituvchi bayoniing ko'rsatmaliligini ta'minlaydi, uni aniqlashtiradi, o'quvchilar o'tmish haqida jonli tasavvur hosil qiladi. Badiiy adabiyotning roli bu bilan tugamaydi. Ma'lum davrning ijtimoiy hodisalarini real aks ettiruvchi haqiqiy badiiy obraz, tipik obrazlar o'sha ijtimoiy hodisaning mohiyatini ifodalaydi. O'qituvchi bayonida badiiy adabiyotdan olingan namunalar bayonning ta'sirchan bo'lishini ham ta'minlaydi, o'rganilayotgan tarixiy voqealarga nisbatan o'quvchilarda xayrioxlik, zavqlanish, afsuslanish kayfiyatlarini, nafrat yoki hayrat tuyg'ularini tug'diradi.

Tarix o'qitishda foydalaniladigan badiiy adabiyotlarni:

1-o'rganilayotgan davrning adabiy yodgorliklari va 2-tarixiy belletristik asarlaridan iborat ikki guruhga bo'lish mumkin. Adabiy yodgorliklarga tarixiy hodisa va voqealarni o'z zamondoshlari yozib qoldirgan asarlar kiradi. Bu guruhga kirgan asarlar tarix fani uchun o'tmishning o'ziga xos manbai bo'lib xizmat qiladi.

O'qituvchi badiiy adabiyotni tanlashda materialning ta'lism-tarbiya jihatidan qimmati tarixiy hodisalarning naqadar haqqoniy real va ilmiy qilib yoritilganligini e'tiborga oladi. O'qituvchi tarix darslarida foydalanish uchun badiiy adabiyotdan:

a) o'rta ta'lism va o'rta maxsus ta'lism tizimi dasturida ko'zda tutilgan tarixiy voqealarning tasviriga;

b) tarixiy arboblar va xalq ommasi vakillarining obrazlarini, xalq ommasining rolini ko'rsatishga;

v) muhim tarixiy voqealar bo'lib o'tgan joylarni va u yerkarning aniq sharoitini tasvirlashga bag'ishlangan asarlarni tanlaydi. O'qituvchi o'z bayonida badiiy adabiyotlardan foydalanish bilan birga o'quvchilarning sinfda va sinfdan tashqari badiiy asarlarni o'qishlari ustidan doimiy nazorat olib boradi. Badiiy adabiyotning yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashdagi ahamiyati. Badiiy adabiyotning qimmati o'quvchi voqelikni adibning iste'dodi darajasida idrok etishga, uni ko'zi bilan ko'rishga, uning shaxsi orqali, ma'naviy dunyosi orqali tasavvur etishga, u olg'a surgan o'z amaliy faoliyatida ongli ravishda amal qilishga erishishi bilan belgilanadi. O'quvchi asarda tasvirlangan timsollar galereyasi va badiiy vositalarni faqat kuzatuvchisiga aylanmasligi, balki adib olg'a surgan ta'lism-tarbiyaviy g'oyani qanday natijaga erishganligi nuqtai nazaridan baholashga o'rgangan taqdirdagina uning mohiyatini to'liq, chuqur anglab etishi muqarrar.

Badiiy asarni to'g'ri tanlay bilish ham asar g'oyasini ta'lism-tarbiyaviy tomondan chuqur o'zlashtirishning muhim omillaridan biri bo'lib, uni tanlashda ma'lum mezonlarga asoslaniladi, ya'ni badiiy asarning yuksak g'oyaviy-badiiy qimmati, adib ijodida asarning xarakterli o'rni (asosan yuqori sinflarda):

asarning yaratilgan va o'rganilayotgan davr uchun ahamiyati (bu ham asosan yuqori sinflarda hisobga olinadi); badiiy asarning ta'limi, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi xususiyati; badiiy asarning o'quvchi yoshiga mosligi, munosibligi; badiiy asarning o'quvchi yoshiga mosligi, munosibligi; o'quvchida qiziqish uyg'otishi; o'quvchining ma'naviy qiziqishi; talabi, ehtiyojlariga javob bera olish darajasidan iboratdir. Proza yo'nalişida yozilgan asarlar hayotning keng va ob'ektiv manzarasini tasvirlashi, ma'naviy qadriyatlar mohiyatini atroficha ochib berishi, poeziyada bunday tasvirga keng imkoniyat yo'qligi, dramatik asarlarda esa voqelik yozuvchi nutqi orqali emas, balki obrazlarning hatti-harakati, so'zları orqali ifodalananishi bilan farq qiladi. Adabiy turlar o'rtasidagi bunday farqlanish ularning tarbiyaviy imkoniyatlari jihatidan ham farqlanishiga olib keladi. Mazkur janrlardagi asarlar o'quvchiga birinchidan, o'tmishning madaniy merosi,



bu merosning rang-barangligi, o‘zbek xalqining takrorlanmas iste’dod egalari bo‘lgan ajdodlari haqida aniq va qiziqarli ma’lumot beradi. Ikkinchidan, o‘quvchining o‘zligini anglashi uchun boy ma’naviy oziq beradi. Uchinchidan, o‘zbek millati, sharq xalqlari tarixi, dini, madaniyati, urf-odatlari, an’analari, udumlari haqida badiiy ifoda vositalari asosida ilmiy, haqqoniy, tarixiy ma’lumotlarni egallashga muvaffaq bo‘ladi. To‘rtinchidan, sharq xalqlari, o‘zbek xalqi ruhiy holati, ahloq-odob mezonlaridan qahramonlik, jasurlik, mehnatsevarliq insonparvarlik, mehmonnavozlik, imon-e’tiqod, sevgida sadoqat kabi qadriyatlar haqida atroflicha ma’lumot olishga tuyassar bo‘ladi. Yuqori sinf o‘quvchilarining badiiy adabiyot vositasida ma’naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogika talablaridan biri, uning tarbiyaviy ta’sir kuchidan foydalanishda unga davr nuqtai nazaridan yondashishdir.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Axmedov B., O‘zbekiston tarixi manbalari.-Toshkent:O‘qituvchi,2001.
2. Madraimov A., Fuzailova G. Tarixiy manbashunoslik .- Toshkent: Fan,2006.



O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXINI O'RGANISHNING SIYOSIY VA IJTIMOIY, ILMIIY VA AMALIY AHAMIYATI

Najmiddinova Madina Ixtiyor qizi.
Navoiy viloyati Qiziltepa tumaniga qarashli
1 umumiy o'rta ta'lim maktabi
Tarix fani o'qituvchisi

Annotasiya: maqolada O'zbekistonning eng yangi tarixini o'rganishning metodologik asoslari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, eng yangi tarix, ilmiy-nazariy metodologiya, siyosat, ijtimoiy, ilmiy, amaliy, mustaqillik, iqtisodiyot, taraqqiyot, integratsiya, jarayon, manbaviy asos, qiyoslash, taqqoslash

Mustaqillik yillari ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning tezkorligi, voqealarning shiddatliligi, olam-u odam taqdiriga daxldor bo'lgan dunyoviy muammolar-u serqirra hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan umumiylar qarashlarimizdan tortib, eng kichik, eng shaxsiy yumushlarimizgacha bo'lgan barcha hodisalarni o'zida mujassam etadi.

Tabiiyki, bunday yalpi yangilanishlar jarayoni ijtimoiy-gumanitar fanlar qatorida tarix fani oldiga ham yangi vazifalar qo'yadi. Tadqiqotchilar birinchi navbatda xalqimizning mustaqillikka erishish yo'llidagi asrlar osha olib borgan tinimsiz kurashini, uni qo'lga kiritish yo'llari va vositalarini, milliy davlatchilik qurilishiga doir tajribani, mustaqillikni mustahkamlashning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy omillarini o'rganish va milliy g'oyani yaratish kabi bir qator muhim muammolarni har tomonlama mushohada qilmoqlari lozim. Darhaqiqat, tarix xotirasi inson taraqqiyotiga kuchli ta'sir o'tkazadi, milliy g'oyaning shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Milliy ong, milliy tafakkur xalq tarixi, uning rivojlanish bosqichlarini nechog'li o'rganish, undan saboq chiqarish bilan bog'liq. Ulug' allomalar aytganidek, tarix insonni istiqbolga da'vat etadi, ulkan yaratuvchilikni rag'batlantiradi. Zotan, uning ulug' murabbiylik, tarbiyachilik, yo'naltiruvchilik qudrati ham xuddi ana shunda.

Insoniyat tarixida XX asrning so'nggi choragi va – XXI asr boshi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarning yangi pallasini boshlab berib, O'zbekistonning milliy davlat mustaqilligini qo'lga kiritishi aynan shu davrga to'g'ri keldi. Bu holat tarix fanida ham tub o'zgarishlarni, nazariy va metodologik yangilanishni, bir so'z bilan aytganda mustaqil O'zbekiston nufuziga munosib bo'lishni taqozo qildi. Mustaqillik yillarida tarix fani arsenali yangilanib, o'zgardi. Tarix fanida kechgan chuqur ichki transformasiya jarayoni fanning nazariy-metodologik, konseptual, mazmuniy, strukturaviy o'zgarishlarida aks etdi.

O'zbekistonning eng yangi tarixi tarix fanida ana shunday yangi ilmiy yo'nalishlardan biri bo'ldi. Bu bevosita milliy mustaqil davlatning tashkil topishi bilan vujudga kelib, zamonaviy tarixiy jarayonlarning rivojini o'rganish, tahlil qilish, tarixiy tajribani umumlashtirish va bu orqali milliy o'zlikni anglashga yo'naltirilgandir.

Bozor munosabatlari qaror topib, tadbirkorlikni rivojlantirishga katta ahamiyat berilayotgan mustaqillik sharoitida an'anaviy hunarmandchilik sohasini qayta tiklash, uni milliy asosda yangidan rivojlantirish jarayonlarini o'rganish tarixchilarining tadqiqot ob'ektiga aylandi.

Mustaqillik davri ijtimoiy jarayonlarini turli jihatlarini ma'lum xronologik doirada o'rgangan tadqiqotlar vujudga keldi. O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo'li ta'lim tizimini isloh qilishni taqozo qildi. Bu sohada O'zbekiston o'z milliy strategiyasini ishlab chiqib, ta'lim tizimini isloh qilishning o'ziga xos yo'lidan bordi. Ta'lim tizimidagi islohotlar jarayoni, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining ishlab chiqilishi va amaliyotga tadbiq etilishi natijasidata'limning uzluksizligi, umumata'lim va professional ta'limning chuqurlashib borishini yorituvchi, shuningdek O'zbekistonda ilm-fan rivojlanishi holati va taraqqiyot yo'nalishlarini tahlil qiluvchi tadqiqotlar amalgalashadi.

O'zbekistonda diplomatiya xizmatining shakllanishi va rivojlanishi o'rganish O'zbekistonning sovet davri va mustaqillik yillaridagi tashqi aloqalari tarixini qiyosiy tahlil etish orqali bu soha rivojida muhim o'rinn tutgan omillarni aniqlash va tarixiy jarayonlarni umumlashtirib, ilmiy xulosalar chiqarish imkonini berdi.



O‘zbekistonning mustaqillik davri masalalarini o‘rganishda faylasuflar, iqtisodchilar, huquqshunoslar, sosiologlarning izlanishlarini e’tirof etgan holda, ularning tadqiqotlarida mujassamlashgan ma’lumotlar va xulosalarini tarixiy tadqiqotlarga jalb qilish asnosida, fanlararo yondoshuvga asoslangan O‘zbekistonning eng tarixini yaxlit yorituvchi asarning yaratilishi fursati yetdi. Bu asar jamiyat tarixiy tafakkurida mamlakatimizning dunyoda munosib o‘ringa egaligi va O‘zbekiston tarixi umumjahon tarixiy jarayonlarining ajralmas bir qismi ekanligi haqidagi tasavvurlarni shakllantirmog‘i lozim.

Foydalaniman adabiyotlar ro‘yxati

1. Jo‘raev N. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. Uchinchi kitob. - T.: Sharq, 2010.
2. Quvvatov N. O‘zbekistonda o‘tish davri va jamiyat taraqqiyoti. - T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013.
3. Levitin L. O‘zbekiston tarixiy burilish pallasida. – T.: O‘zbekiston, 2001. – 368 b.
4. Levitin L., Karlayl D. Islom Karimov - Yangi O‘zbekiston Prezidenti. - T.: O‘zbekiston, 1992.
5. Mavlanov O‘., Abduvasitova I. Tarixiy-madaniy meros – milliy g‘oyani anglash omili. – Toshkent: Akademiya, 2014.
6. Saidov U. Globallashuv va madaniyatlararo muloqot. – T.: Akademiya, 2008. – 232 b.



ТУРКИСТОНДА МУСТАБИД СОВЕТ ҲОКИМИЯТИНИНГ О'РНАТИЛИШИ.

Бекчанов Тулганой Юсуповна

Хоразм вилояти Шовот туман
46-сон умумий урта таълим мактаб
тарих фани уқитувчиси.

Email:to'lg'anoy46@mail.uz

Нуржонова Умида Хоразм вилояти

Шовот туман 46-сон умумий урта
таълим мактаб тарих фани уқитувчиси

Email: umida46@mail.uz

Жуманиёзов Расул Туррабоевич

Хоразм вилояти Шовот туман 49-сон
иҳтинослаштирилган умумий урта таълим
мактаб тарих фани уқитувчиси

Email: shovot49@inbox.uz

Аннотатсия: ушбу маколада Туркистонда мустабид совет ҳокимиятининг кандай урнатилганлиги ва бунинг учун амалга оширилган ишлар хакида мулоҳазалар юритилган.

1917-йилги октябр воқеалари ва унинг

Туркистон ҳалқлари ҳаётига та'сирি

1917-йилги феврал инқилоби Россияда туб о'згаришларнинг юз беришига олиб келмади. Бунинг боиси шундаки, Муваққат буржуа ҳукумати о'зининг тор, худбин манфаатлари доирасидан четга чиқа олмай, йетилган туб масалаларни ҳал этишга ожизлик қилди. Натижада сиёсий тузумда о'згариш бо'лгани ҳолда муҳим ижтимоий-иқтисодий, аграр, миллий, сулҳ масалалари амалда йечилмай қола берди. Бу эса мамлакат ҳаётининг янада боши берк ко'чага кириб, танглик, таназзуллик ҳолатларининг кучайиб боришига сабаб бо'лди. Айниқса, Россиянинг Биринчи жаҳон урушида иштирокининг давом этиши, рус армиясининг фронтда кетма-кет маг'лубиятга учраётганлиги умумхалқ норозилиги ва қаҳр-ғазабини тобора кучайтиromoқда эди. Негаки, урушнинг бутун оғ'ирлиги ҳалқ оммасининг зиммасига тушаётганди. Россиянинг иқтисодий ҳалокат томон бориши, ижтимоий танглик ва инқирозий жараёнларнинг зо'райиши эса Муваққат ҳукуматнинг тобора обро'сизланишига, ҳалқдан яккаланиб қолишига, оқибатда эса вазиятнинг кескинлашувига олиб келаётган эди. Ленин бошлиқ большевиклар ҳудди мана шу қалтис вазиятдан устомонлик билан фойдаланиб, оммани о'з томонига аг'даришни ко'зловчи шиорларни майдонга ташлаб, сиёсий ҳокимиятни эгаллаш сари ё'л тутди. Большевиклар о'з мақсадларига эришишда ҳалқнинг қо'йини пуч ёнг'оққа то'лдирувчи ва'далар бердилар. Улар оммабоп чақириқларни илгари суриб, барча муҳим масалаларни ҳал этишга қасамёд қилдилар. Мана шундай устакорлик ва хийлакорлик ё'х билан большевиклар 1917-йилнинг 24-25-октябр кунлари Петроградда давлат то'нтишини амалга оширилар. Улар Муваққат ҳукуматни аг'дариб, ҳокимиятни эгаллашга муваффақ бо'лдилар. Тез орада мамлакатнинг бошқа ҳудудларида ҳам уларнинг ҳукмронлиги о'рнатила бошланди. Шу тариқа пролетариат диктатураси номи билан аталган совет ҳокимияти вужудга келди.

Туркистонда совет ҳокимиятининг зо'рлик билан о'рнатилиши

Большевиклар Марказда сиёсий ҳокимиятни қо'лга олар эканлар, улар собиқ Россия империяси таркибига кирган ҳудудларда, жумладан, Туркистонда ҳам совет тузумини қарор топтиришга интилдилар. Улар ниҳоятда яширин никобланган дастурий ҳужжатларни, о'з г'оявий та'сирини ишга солиб, қисқа муддатларда жойларда ҳокимиятни қо'лга киритишга киришдилар. Бу мақсадга эришишда керак бо'лса ҳар қандай зо'рлик, куч ишлатишдан ҳам қайтмадилар. Бу, айниқса, Туркистон о'лкаси мисолида ёрқин намоён бо'лди.

Гарчанд, советлар даврида яратилган ко'плаб тарихий адабиётларда бу давр тарихи бутунлай соҳталашибилиб, го'ё Туркистон аҳолиси октябр г'ояларига қо'шилиб, биринчилардан бўлиб о'лкада советлар ҳокимиятини о'рнатди, деб оғ'из ко'пиртириб келинган бо'лса-да, бироқ аслида бу хил фикрлар ва қарашлар тарихий ҳақиқатга мутлақо зид эди.



Аҳолини ма'навий-рухий камситиш, диний э'тиқодини, исломий қадриятларини таҳқирлаш, муқаддас қадамжоларни ҳақоратлаш, диний китобларни гулханда ёндириш — булар совет тузуми зо'равонлари учун о'ша кезларда одатий тус бо'либ қолганди. Аниқ расмий ма'лумотларга ко'ра, Фарғ'она водийсида совет ҳокимиятини о'рнатиш чог'ида Марғ'илонда 7 минг, Андижонда 6 минг, Наманганда 2 минг, Бозорқо'рг'он ва Қо'қонқишлоқ (хозирги Пахтаобод тумани) атрофларида 4,5 мингдан зиёд бегуноҳ кишилар қирг'ин қилинган. Бундай қирг'инлик Туркистоннинг бошқа шаҳар ва қишлоқларида ҳам совет ҳокимиятини о'рнатиш чог'ида содир этилди.

Совет ҳокимияти доҳийлари о'зларининг қатор расмий дастурий ҳужжатлари ва шиорларида бор овоз билан оламга жар солиб, барча мазлум халқлар, элатларга ҳукуқий тенглик, о'з тақдирини о'зи белгилаш, миллий давлатчилигини тузиш ва мустақил давлат сифатида ажralиб чиқишига қадар уларнинг ҳақли, ҳукуқли эканлигини э'лон қилган эдилар. Масалан, октябрнинг муҳим ҳужжатлари хисобланган «Россия халқлари ҳукуқлари декларацияси», «Езилган ва эксплуатация қилинувчи халқ ҳукуқлари Декларацияси», «Россия ва Шарқнинг ҳамма меҳнаткаш мусулмонларига» да'ватномаси ва бошқа ҳужжатларда мазлум халқларнинг озодлик ва мустақилликка эришувини расман қо'ллаб-куватлаган ҳолда, амалда зимдан бошқача сиёsat тутиб, бу жараённинг юзага чиқишига бутун чоралар билан то'сқинлик қилдилар.

1917-йилнинг 12-15-ноябр кунлари Тошкентда бўлиб о'тган Туркистон мусулмонларининг ИИИ қурултойи қабул қилган қарорларда: «Ҳокимиятнинг маҳаллий аҳоли манфаати учун деярлик зид бо'лган бегона ва о'ткинчи, тасодифий кишилар гурӯҳи — ҳарбийлар, ишчилар ва деҳқонлар ташкилотлари қо'лида бо'лиши демократик қоидалар талабига жавоб бермайди ва маҳаллий аҳолига халқларнинг о'з тақдирини о'зи белгилаши асосида то'г'ри ҳаёт қуришига кафолат беролмайди», деб қайд этилган эди.

Бироқ бу ҳаққоний талаб ва огоҳлантиришлар Туркистонда совет ҳокимияти мутасаддилари сифатида иш юритаётган, жойларда эса бу ҳокимиятни зо'рлик ё'ли билан қарор топтираётган большевиклар ва уларнинг муваққат иттифоқчиларига заррача ҳам та'сир этмади. Улар о'з муддаоларига эришиш мақсадида Туркистон ишчи, аскар ва деҳқон депутатлари советларининг ИИИ о'лка қурултойини чақирдилар. Мазкур қурултой 1917-йилнинг 15—22-ноябр кунлари Тошкентда бо'либ о'тади.

Туркистон Мухторияти

Советлар ҳокимияти о'рнатилгандан кейин Туркистонда кечётган ва тобора чигаллашиб бораётган оъта мураккаб вазият оълканинг юртпарвар ва тараққийпарвар кучларини фаол ҳаракатга келтирди. Улар ташаббусни қо'лга олиб, большевиклар бош бо'лган совет ҳокимиятига қарши турла оладиган, демократик асосларга таянган, чинакам халқ ҳокимиятчилигини о'зиди ифодалаган миллий давлатчиликни ташкил этиш томон ё'л тутдилар.

Янгидан таркиб топаётган давлат Туркистон Мухторияти деб аталадиган бо'лди.

Та'сис мажлиси чақирилгунга қадар ҳокимият то'лиг'ича Туркистон Муваққат Кенгаши ва Туркистон Халқ (Миллий) Мажлиси (54 кишидан иборат) қо'лида бо'лишлиги та'кидланди.

Туркистон Мухториятини қабул қилиши ҳақидаги қарорда шундай дейилади: «Туркистонда яшаб турган турли миллатга мансуб аҳоли Россия инқилоби да'ват этган халқларнинг о'з ҳукуқларини о'злари белгилаш хусусидаги ипродасини намоён этиб, Туркистонни Федератив Россия республикаси таркибида ҳудудий жиҳатдан мухтор деб э'лон қиласи, шу билан бирга мухториятнинг қарор топиш шакларини Та'сис мажлисига ҳавола этади». Қурултой «Туркистонда яшаб турган миллий озчилик аҳоли ҳукуқларининг муттасил ҳимоя қилиншини тантанали равишда э'лон қиласи».

Фойдаланилган адабиётлар.

1.Аззамхужаев С.История Туркестанской автономии:(Туркистон мухторияти).-Т.Тошкент ислом универсиети.2006.

2. Аззамхужаев С. Туркистон мухторияти-Т.:Маънавият.2000.



JAMIYAT HAYOTIDA HUQUQIY ONG MASALASINING DOLZARBLIGI.

Raxmonova Gulzoda G'aniyevna,
mustaqil tadqiqotchi

Kalit so‘zlar: huquq, huquqiy me’yor, adolat, axloq, jamiyat, qonun, an’ana, formal, yuridik, axloqiy-ma’naviy talablar, so‘z erkinligi, ijod erkinligi, fikrlar plyuralizmi

Annotatsiya: Mazkur maqolada jamiyat taraqqiyoti davomida ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lgan huquqiy ongning shaxslar hayotidagi ahamiyati ochib berilgan. Huquqiy ong masalasi bugungi zamonaviy jamiyatda dolzarb ahamiyat kasb etib borishi asoslab berilgan.

Jamiyat rivojlanib, davlat paydo bo‘lgandan keyin ma’naviy talablarning bir qismi huquqiy me’yor-qoidalarda o‘z aksini topadi, deyish bilan biz ma’naviyat va huquqning mustahkam aloqaga ega ekanini tasdiqlab turibmiz. Aslida ham shunday. Kishilar bugun o‘z faoliyatining deyarli barcha asosiy sohalarida huquqiy me’yorlarga tayanib ish ko‘radilar. Huquqiy me’yorlar buzilsa, jamiyatda tartibsizliklar vujudga keladi, jinoyatchilik o‘sadi, yoki turli ko‘rinishlardagiadolatsizliklar sodir bo‘ladi. Huquq alohida fuqarolar, tabaqalar, guruhlardan, tashkilot va idoralardan ustun turuvchi majburlovchi, nazorat qiluvchi va jazolovchi kuchlarning bo‘lishini taqozo etadi. Huquqdan farqli axloq hech bir o‘rinda jazolovchi kuchni ro‘baro qilmaydi. Axloqning ortida jamoatchilikning fikri turadi, xolos. Huquq odamlar ongli ravishda davlat qonunlarida belgilangan me’yorlarga rioya etishini talab qiladi, odamlarda adolat tuyg‘usini va tegishli qarashlarni rivojlantirib, ular ma’naviy ongini, jamiyat ma’naviyatini boyitadi. Ma’naviy-axloqiy talablarning bir qismi qonun talablariga, me’yorlariga aylanadi. Bu birinchi navbatda jamoa a’zosining urug‘-qabila oldidagi ayrim majburiyatlarining davlat oldidagi majburiyatga aylanishidir. Masalan, ishlab chiqargan, ovda topgan moddiy mahsulotlarining bir qismini urug‘-qabilaning umumiy iste’moliga, jamg‘armasiga berishi soliq(natural yoki pul ko‘rinishida) majburiyatiga, urug‘-qabilani xavf-xatar tug‘ilganda qo‘lida qurol bilan himoya qilish majburiyati harbiy xizmat yoki lashkarda qatnashish majburiyatiga aylandi. Maishiy hayot, oila, shaxsiy buyumlar, ishlab chiqarish va ov-jang qurollari maqomi o‘zgarib, ular daxlsiz shaxsiy sohaga aylandi va tegishli qonunlar yordamida himoya qilinadigan bo‘ldi. Muayyan jamiyatdagi huquqiy qonun – qoidalar o‘sha mintaqqa xalqlari tomonidan asrlar mobaynida ishlab chiqilgan ma’naviy-axloqiy aqidalar, tamoyillar, me’yorlar, shuningdek, nisbatan umumiylilik xususiyatiga ega bo‘lgan urf-odatlar zamirida vujudga keladi. Bundan tashqari, shaharlarning paydo bo‘lib, o‘sishi, ularni turli xurujlardan, ko‘chmanchi qabilalardan himoya qilish uchun devor bilan o‘ralishini taqozo etdi. Bunday zarurat shahar aholisi daromadidan bir qismini shahar- davlat ehtiyojlariga olishni (soliqni), uni boshqaradigan, himoya qiladigan, jamoat tartibini saqlaydigan kishilarni moddiy ishlab chiqarishdan, turli boshqa yumushlardan ozod qilib, ularga oylik-maosh to‘lashga zarurat tug‘dirdi. Shahar-davlat ehtiyojlar, odamlar o‘rtasida yangidan vujudga kelgan munosabatlarni majburiy me’yorlar – qonunlar bilan mustahkamlash lozim edi.

Lekin aksariyat axloqiy me’yorlar urf – odatlar, an’analar huquqiy me’yorlar darajasiga ko‘tarila olmaydi. Buning sababi, ularning, avvalo, maishiy xarakterga ega ekanligidir. Ba‘zi urf-odatlar, an’analar hayotdan ortda qoladi yoki tafakkurdagi, e’tiqoddagi turli illatlar sababli vujudga keladi, insonparvarlik talablariga mos kelmay qoladi. Masalan, johiliyat davrida arablarda birinchi farzand qiz tug‘ilsa, uni tiriklay ko‘mib tashlash odati bo‘lgan. Keyinchalik, musulmonlik yoyilganda, bu odat g‘ayrimusulmonlik odati sifatida rad etildi. Hozirga kelib, bunday hodisaga qonunchilikda jinoyat deb qaraladi. Yoki deyarli barcha xalqlarda qadimda mavjud bo‘lgan xun va qasos olish odati ham hozirda jinoyat sifatida jazoga loyiq hisoblanadi. Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin.

Ko‘rinib turibdiki, axloq bilan huquq, garchand, bir ildizga ega bo‘lsa-da, ularning jamiyat ma’naviy hayotini boshqaruv usuli har xil: axloq asosan tushuntirish, pand- o‘gitlar, jamoatchilik qo‘llab-quvvatlashi yoki salbiy baholashi hamda urf-odatlar vositasida ish ko‘rsa, huquq amalda yoki potensialda majburiy usul, jazo choralar orqali ish olib boradi.

Zamonaviy jamiyatda inson huquqlariga yondashuv formal – yuridik mazmun kasb etishi kuchaymoqda. Bu esa inson mavhum huquqini hamma narsadan ustun qo‘yishga, axloqiy-ma’naviy talablarni ba’zan inkor qilishga olib keladi. Masalan, turli xil behayo, qotillik, zo‘ravonlik sahnalarini ochiqcha tasvirlaydigan “san’at” asarlarini ko‘rish, eshitish, o‘qish – go‘yoki insonning axborot olish huquqidir. Bunday asarlarni yaratish esa go‘yoki ularni yaratgan mualliflarining so‘z erkinligi, ijod erkinligi, fikrlar va qarashlar plyuralizmi va h.k. deb oqlanadi. Bu katta xatodir. Chunki inson shaxsining yemirilishiga olib keladi.



TARIXIY HAQIQAT IZIDAN.

Sayidova Nilufar Bahodir qizi

Milliy rassomlik va dizayn instituti 4 bosqich talabasi

Sayidova Ra'no Bahodir qizi

Toshkent davlat pedagogika universiteti 1 bosqich talabasi

Telefon: +998(94)6575685

nilufar_sayidova@list.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada biz yurtimiz tarixida eng yorqin sahifalardan biri bo‘lgan Temuriylar davrida bonyod etilgan muhtasham Oqsaroy haqida so‘z olib bordik. Amir Temur o‘z hayoti davomida ko‘plab binolar bonyod qilgan. Ammo shavqatsiz vaqt binolarning barchasini bizgacha saqlanib qolishiga biroz to‘sinqlik qilgan.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, Temuriylar davri, mo‘g‘ullar, Oqsaroy, Klavixo, Abdurazzoq Samarqandiy, Nizomiddin Shomiy, kompozitsiya, peshtoq, ravoq, islimiy, grix naqshlar.

Mamlakatimizdagи muqaddas qadamjolar haqida qancha gapirsak, shuncha ozdek nazarimizda. Sababi bunday maskanlarning o‘ziga xos bosib o‘tgan tarixiy yo‘li bor. Muqaddas qadamjolar, tarixiy obidalar bizning ma’naviy boyligimiz hisoblanadi. Bu faxr tuyg‘usini har bir yosh avlod dilda g‘urur bilan his qilishi, ularni asrab- avaylab kelajak avlodga ham yetkazishi barchamiz uchun muhimdir.

Tarixga nazar soladigan bo‘lsak, XIV asrning ikkinchi yarmi O‘rta Osiyo tarixida yangi uyg‘onish asri bo‘lib qolgan. Tariximizning eng yorqin sahifalaridan sanalgan Sohibqiron Amir Temur va Temuriylar davriga kelib, mo‘g‘ullar bosqini davrida vayron holatga kelgan shaharlar qayta tiklanib, barcha sohalar gurkirab rivojlanganligini guvohi bo‘lamiz. Xususan, me’morchilik sohasi ham bu davrda o‘zining yangi sahifasini ochdi. Buyuk Sohibqiron amri bilan bonyod etilgan me’moriy obidalardan bizgacha ayrimlari saqlanib qolgan. Misol uchun Amir Temur tomonidan bonyod etilgan, keyinchalik Temuriylar sultanatining eng ko‘rkam majmualaridan biri sanalgan Oqsaroy majmuasidir. Oqsaroymdan hozirgi kunda faqat peshtoq ustunlarigina saqlanib qolgan. Qadimiy Kesh (hozirgi Shahrisabz) shahrida bunday etilgan ushbu inshoat tarixi haqida ko‘plab ma’lumotlар mavjud. Oqsaroyni qurulish ishlari 1380 yilda boshlanib, qariyb 20 yil davom etgan. Temur har bir zafarli yurishidan keyin, doimo bir inshoat bonyod etgan. Tarixchi Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha, “Temur Xorazmni to‘rtinchi g‘olibona yurishi bilan egallab, u yerdagi usta, hunarmand va mashhur me’morlarni olib kelishga buyruq berdi. Ular Oqsaroy nomi bilan ma’lum bo‘lgan muhtasham saroyni qurdilar”. Bu muhtasham dargohning “Oq Saroy” deyilishiga sabab, uning rangi emas, balki go‘zalligi va ulug‘vorligidadir. Saroy o‘zining ulug‘vorligi bilan zamondoshlarini hayratda qoldiradi. Tarixchi Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asarida “Hech kim bunday imoratni hech qachon ko‘rmagan va unga o‘xshashini bonyod etmagan” - deb yozib qoldirgan.

Tarixiy ma’lumotlarga asoslangan holda, Oqsaroyning umumiyligi kengligi 52 metrdan ortiqroq bo‘lgan old fasaddan 8 metrlar chamasi markaziy yo‘lak orqali ikkinchi darvozaga kirilgan. Ushbu yo‘lak uzun va ikki yoni g‘ishtin arkalar bilan bezatilgan. Ispaniya elchisi Klavixoning yozishicha “Saroy oldidagi hovlining eni uch yuz qadamga teng bo‘lib, oq marmar bilan qoplangan.” Hovlining o‘rtasida katta hovuz, ikki yon tomonda shahzodalar qabulxonalarini va to‘rda esa buyuk Sohibqironning qabulxonalarini joylashgan. Bu imorat qurulish jihatdan ham, o‘chamlari, bezaklari, va hattoki foydalanilgan ashyolari jihatdan ham yagona bo‘lgan. Uning balandligi umumiy 70 metrni tashkil qilgan. Bu hozirgi 20 qavatli imoratning bo‘yidan ziyodroqdir. Oqsaroyning yana bir mashhur jihatni bu undagi koshinlarning noyobligidir. Devorlariga qoplangan turli shakldagi koshinlar va sirkor sopollar chinakam mo‘jiza va ijodiy yetuklik namunasidir. Bularidan tashqari ularda foydalanilgan ranglarning jilokorligi kishini hayratda qoldiradi. Binafsharang ko‘kintir, zumrad yashil, havorang, zarhal va turli xil bo‘yoqlardan foydalangan holda takrorlanmas joziba kashf etilgan. Peshtoqlarida syujetli naqshlar, kufiy xatida mohirona yozilgan tarixiy va diniy yozuvlar, islimiy va geometrik naqshlarning o‘zaro uyg‘unligidan hosil bo‘lgan yirik kompozitsiya har bir tomoshabinni befarq qoldirmaydi. Bu saroy o‘sha davr me’morchiligi uchun eng katta yutuq bo‘lgan.

Temuriylar davrida mamlakatda Oqsaroymdan tashqari O‘rta va Yaqin Sharq me’morchiligi



yantuqlari uyg‘unlashuviga asoslangan yangi me’morchilik uslubida bunyod etilgan inshootlar talayginadir. Ularni bugungi kundagi ko‘rinishini saqlab qolish, madaniy boyligimiz sanalgan tarixiy binolarni konservatsiya va restavratsiya qilish uchun qator amaliy ishlar olib borilmoqda.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. G.A.Pugachenkova “Temurning me’moriy merosi”.
2. P.Sh.Zohidov “Me’mor olami”.
3. “Moziydan sado” jurnali 2017- yil 4-son



ХИВА ХОНЛИГИДА ТАБИАТДАН ФОЙДАЛАНИШ ТАРИХИННИНГ БАЪЗИ МАСАЛАЛАРИ

Тажиева Умида Ражаббаевна
Урганч давлат университети докторант

Аннотация. Ушбу мақолада Хива хонлигидаги табиатдан фойдаланиш тарихининг баъзи кирралари таҳлил қилинган. Хива хонлигидаги воҳа иқлими, табиий-географик омиллар худуддаги ер-сув ресурсларидан фойдаланишда муҳим роль ўйнашига сабаб бўлган. Мақолада хонликда табиатдан фойдалашин жараёнларига оид тарихий-географик маълумотлар келтирилган.

Калит сўзлар. Табиат, жамият, Орол денгизи, хўжалик тизими, суғорма дехқончилик, боғдорчилик.

Тарихий ривожланиш босқичларида атроф-муҳит шароитларидан келиб чиқсан ҳолда, ҳар бир худуднинг ўзига хос яшаш тарзи ва хўжалик тизими, “табиат ва жамият” ўртасидаги муносабатлари юзага келган. Хоразм воҳасида “Табиат ва жамият” ўртасидаги ўзаро таъсир ва муносабатлар тарихини таҳлил қилганда аввало, Орол денгизи, Амударё қирғозларида балиқ овлаб, суғорма дехқончилик қилган қадимги аждодларимизнинг асрлар давомида тўпланиб келган ижтимоий-маънавий билим ва кўнилмаларини гувоҳи бўламиз.

Ўзбек давлатчилиги тарихи уч асрлик тарихга эга бўлган Хива хонлигининг ўрни катта. Хонликда воҳа иқлимининг қуруқ ва иссиқлиги, атрофи чўл ва қумликлар билан ўралганлиги, унинг ҳудудидаги урбанизация жараёнларида табиий-географик омиллар муҳим роль ўйнашига сабаб бўлди. Зеро, шаҳарлар тараққиётида уларнинг воҳаларда жойлашуви, сув таъминоти, ташқи хавфлардан ҳимояланганлиги ҳаёт давомийлигини таъминлашда муҳим аҳамият касб этган.

Я. Фуломов «Хоразм каби асосий фаровонлиги суғорма дехқончилик қилиш билан боғлиқ бўлган мамлакатда ирригацияга ғамхўрлик қилиш давлат иши эди”, дея таъкидлаганди¹. Янги каналлар қазиши, янги ерларни ўзлаштириш, суғориш ишларини кенгайтириш каби масалалар хонликнинг иқтисодий ҳаётини ва сиёсий мавқеини белгилашда асосий омиллардан бири эди. Хива хонлигидаги ҳашар йўли билан эрта баҳорда йирик суғориш иншооти бўлган каналлар ва улардан ён томонга чиқарилган ариқ ва ёплар тозаланган².

Айниқса, XVIII асрнинг иккинчи ярми - XIX асрнинг биринчи чорагида Хива хонлигидаги марказлаштиришга асосланган тенденцияларнинг кучайиши натижасида Кўнғирот сулоласининг дастлабки вакилларининг марказий ҳуқумат позицияларини мустаҳкамлаш ва сиёсий барқарорлаштириш сиёсатида мамлакатнинг ер ва сув хўжалигини тиклаш масалалари эътиборда бўлди.

Хонлик хақида турли-туман маълумотларга бой ва ўзига хос тарихий жараённи ифодалашда ўз салмоғига эга холатларни Рус генерали М.И.Иваниннинг “Хива ва Амударё дарёси” асарида кўрамиз. Хивага Россия империяси истилоси туфайли бу юришда кўплаб ҳарбий мутахассислар қатнашиб, ўз кўрган кечирганларини баён қилишган. Хива экспедицияси қатнашчиларидан бири ҳарбий географ П.Ф.Костенко ўз кузатишларини “Хивадан Казалинсккача”, “Хива шаҳри 1873 йилда”, “Хива хонлиги қишлоқ хўжалиги муносабатларида” (1874) ва бошқа мақолаларида эълон қилган.

1819 йил Хивада бўлган Н. Муравьев мамлакат боғдорчилиги хақида ёзиги, Хива табиатан ўрмонлардан маҳрумлигини, аммо аҳолининг меҳнати билан тўлиб-тошган мевалари, тотли ва саломатликка фойдали боғлар жуда кўплигини таъкидлайди.

Айниқса Хива қовунлари кўп асрлардан бери дунёга машҳур эди. Тарихий манбаларда қайд қилинишича Хива экспортининг асосий қисмини ташкил этган бу қовунларни зардан ишланган маҳсус қоғозларга ўраб, узоқ ерларга олиб борганлар. Хоразм қовунлари қоқи 1890 йилларда катта карвонлар билан Оренбург орқали Францияга юборилган ва ундан Россияга экспорт қилинаётган энг сифатли конъяклар тайёрлашда фойдаланилган. Академик Н.И.Вавилов 1928 йилда Хоразм қовунларининг ўртача оғирлигини 10-14 кг.га тенглигини

¹ Фуломов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Т. 1959. – Б.13.

²Нўриев О. Ҳашар элга ярашар // Ўзбек халқининг боқий қадриятлари. Қарши, 2005. - Б. 65-67.



аниқлаган, Хоразм қовунлари йириклиги, қандлилиги, мазаси, узоқ сақланиши, узоққа ташилиши бўйича дунёда тенгсиз, деб эътироф қилинган¹.

Шу ўринда хонлик аҳолисининг ер ресурсларидан фойдаланишини ифода қилувчи дехқончилик маданияти ҳақида гапирганда аҳоли тупроқ унумдорлигин ошириш мақсадида куз ва қиши фаслларида далаларга ўғит-малҳам тайёрлаганлиги эътиборга лойиқ. Бунинг учун бирор бир жойга икки метр атрофида кум ташланган. Сўнгра маҳаллий ўғит, қуёшда турган тупроқ бир неча маротаба аралаштирилган. Бу малҳам 500 арава, гоҳида ундан ҳам кўп миқдорда тайёрланган.

Умуман олганда Хива хонлигига яратилган тарихий асарларда ҳудуддаги дехқончилик маданияти, хўжалик тизимлари билан бир қаторда шаҳарлар, дарёлар ва каналлар, кўллар, қудуқлар, қумзорлар ҳақида тарихий – географик маълумотлар ёзиб қолдирилган. Жумладан Абулғозихон, Мунис, Огахий ва Баёнийнинг тарихий асарларида воеалар аниқ баён этилган бўлиб, хоннинг бирор жойга юришини тасвирлагандага йўл йўлакай учраган шаҳар, дарё ва кўллар ҳамда бошқалар ҳақида маълумотлар қолдиранлар.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Андрианов Б.В., Кесь А.С. Развитие гидрографической сети и ирригации на равнинах Средней Азии // Проблемы преобразования природы Средней Азии. – М.: Наука, 1967. – С. 24 – 39.
2. Бартольд В. В.. Сочинения. Т 3.-М, 1965.
3. Гуломов Я.Ф. Хоразмнинг сугорилиш тарихи. Т. 1959.
4. Бўриев О. Хашар элга ярашар // Ўзбек ҳалқининг боқий қадриятлари. Қарши, 2005, Б. 65-67.
5. Рўзматов Б. Барқарор ривожланиш. Урганч: «Хоразм», 2003.
6. Қурбониязов Р. Хоразм географияси. Урганч, 1998.

¹ Рўзматов Б. Барқарор ривожланиш. Урганч: «Хоразм», 2003. – Б.7.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 25-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(3-қисм)

**Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев**

Эълон қилиш муддати: 28.02.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000